

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Jahon tarixi kafedrası

**Bitiruv malakaviy ish**

**Мадрасалар ва уларнинг жамият ҳаётида  
тутган ўрни.**

Tarix ta’lim yo‘nalishi

bitiruvchisi:

Ахмадов Хуршид

Ilmiy rahbar: tarix

fanlari nomzodi

Raxmonov K.J.

Buxoro – 2019

## **M U N D A R I J A**

|                                                               |              |
|---------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                            | <b>3-6</b>   |
| <b>I-BOB. ISLOM MADANIYATIDA MADRASALARNING O`RNI</b>         |              |
| 1.1. Madrasalar va ilmu fan rivoji.....                       | 7-16         |
| 1.2. Buxoro madrasalari – ma’naviyat o`chog`i.....            | 17-26        |
| <b>II-BOB. MADRASALAR FAOLIYATI VA ULARNING MUAMMOLARI</b>    |              |
| 2.1. Madrasalarda ta’lim tizimi.....                          | 27-41        |
| 2.2. Madrasalarning qurilishi, moddiy-xo`jalik ta’minoti..... | 42-59        |
| <b>XULOSA.....</b>                                            | <b>60-61</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>                | <b>62-65</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbekistonning eng yangi tarixida muhim bosqich sifatida kechayotgan so‘nggi yillar (2016-2018)da ilmiy tadqiqotlarga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O‘zbekiston Oliy attestatsiya qo‘mitasi kabilarni ishini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning hayotga joriy etilayotganligi fikrimizning dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2016 yil 18 oktyabrdagi Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimida “Ta’lim va ma’rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” mavzusidagi nutqida: “...Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ajdodlarimizning muqaddas dini bo‘lgan islomning jamiyatimizdagi o‘rnini qayta tiklash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. 1999 yil Toshkentda Markaziy Osiyoda birinchi Islom universiteti ochildi. Mamlakatimizda 10 ta diniy ta’lim muassasasi, jumladan, Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shu ta’lim maskanlari orasida XVI asrda bunyod etilib, ilm-fanni keng yoyishga xizmat qilgan Buxorodagi Mir Arab va Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasalari bor”<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda mustaqillikning e‘lon qilinishi xalqni sovet mustamlakachiligidan ozod qilib, Respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurishga, bozor iqtisodiyotiga o‘tishga yo‘l ochib berdi. Mustaqillik tufayli yurtimiz tarixi, ma’naviy qadriyatlarimiz, qadimiy madaniyatimiz tiklana boshlandi.

Dunyo ilmu fani va tamadduni rivojiga asosiy turtki bergan ziyo maskanlari – madrasalar islom dini va madaniyatining hosilasi bo‘lib, ular ilk bora bizning yurtimizda paydo bo‘lgan.

Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda, ayniqsa, yuksak ma’naviyatga erishish yo‘lida belgilangan maqsad va vazifalar, ta’lim islohotlarining davlat siyosati

---

<sup>1</sup> Mirziyoev SH.M. “Таълим ва маърифат-тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл” // Қаранг: Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –Б.30.

darajasiga ko'tarilishi, O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash Milliy dasturi<sup>2</sup> va Ta'lim to'g'risidagi Qonun<sup>3</sup> amaliyoti muhim ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish, davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi".<sup>4</sup>

Ta'lim – tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, dastur va qonunlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbqiq etish, bu borada O'rta Osiyoda madrasalari asrlar davomida rivojlanib kelgan boy tajriba maktabini o'rganish, tegishli saboq chiqarish, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ularni shakllantirishda an'anaviy ta'lim tizimi muhim rol o'ynagan.

Ma'lumki, madrasalar Sharq xalqlarining ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga benihoya katta hissa qo'shgan. Ammo sovet davri tarixshunosligida O'rta Osiyodagi ma'naviy hayot va ta'lim tizimi hukmron mafkura tazyiqi ostida biryoqlama yoritib kelindi. Jahon ilm-fanida Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy kabi mutafakkirlarni etishtirib bergan mintaqadagi an'anaviy ta'limning so'nggi o'rta asrlarga kelib qoloqlikka yuz tutish sabablari, ularga ta'sir etgan omillar oqibatlar holisona tahlil etilmadi, an'anaviy ta'lim maskanlari asossiz ravishda jaholat va qoloqlik namunasi, diniy hurofot o'chog'i sifatida qoralanib kelindi. Vaholanki, birinchi prezidentimiz Islom Karimov e'tirof etganidek, "otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan".<sup>4</sup>

**Mavzuning o'rganilish darajasi:** Bugungi kunda O'zbekiston tarixshunosligida xalq ta'limini o'rganish masalasida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, Xalqimizning madaniyatga e'tibori va uni yanada mustahkamlash borasidagi harakatlari tarixini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

---

<sup>2</sup>Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., Шарқ, 1998. -Б.20-29.

<sup>3</sup>Ўша жойда. -Б.31-62.

<sup>4</sup>Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи сессияси мажлисидаги маърузаси.//Халқ сўзи.1995 йил, 24 февраль.

<sup>4</sup>Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008. –Б.60.

Haqiqattan ham, qadimda fan rivoji, bizgacha yetib kelgan va kelmagan madrasalar tarixi hamda ularga bitilgan moziy merosimizning asosiy manbalaridan biri hisoblangan qadimiy qoʻlyozma kitoblarning oʻqitilish jarayoni qay tarzda olib borilganligi haqida keyingi davrlarda chop etilgan maqola va nashrlarda yoritib borilmoqda.<sup>5</sup>

Mustaqillik davrida islom sivilizatsiyasining insoniyat tahririda ziyo tarqatgan madaniyat ekanini koʻrsatish maqsadida yaratilgan asarlarda ham madrasalar tarixi ochib berildi.<sup>6</sup>

Oʻrta Osiyo hududida faoliyat yuritgan, xususan, Buxoro<sup>7</sup>, Samarqand<sup>8</sup> madrasalari tarixi, unda oʻqitiladigan asosiy ilmlar haqidagi masalalar ilmiy nuqtai nazardan keng tadqiq etildi. Komiljon Kattayevning risolasida qadimiy Samarqand shahridagi 55 ta madrasa-maktablarning tarixi, ularning aniq joylashgan mavzelari, taʼlim tizimi va ish yuritish prinsiplari haqida qadimiy manbalardan foydalangan holda eʼtiborga molik qimmatli fikrlar bildirilgan.<sup>9</sup> XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro amirligida taʼlim tizimining tadqiqiga bagʻishlangan F.Bobojonovanning asari ham ushbu mavzuga oid masalalarni ochib berishda muhim manba vazifasini oʻtadi.<sup>10</sup>

Abdusattor Jumanazarning “Buxoro taʼlim tizimi tarixi” monografiyasidan ham keng foydalanildi. Bu kitobda Buxoroning XX asrgacha boʻlgan davrdagi taʼlim muassasalari tadqiq etilgan. Tadqiqot maydoni 650-700 gk va davri esa IX-XX asrlarni oʻz ichiga oladi.<sup>5</sup>

---

<sup>5</sup>Атаев А. Мадрасалар тарихига бир назар. // Мозийдан садо.2008.3-сон,-Б.30-31; Бобожонова Ф. Бухоро мадрасалари – маънавият ўчоғʻи. // Бухоро оқшоми 2014 йил, 27 ноябрь; Қаландаров М. Муҳаммад Амнхон мадрасаси ёхуд “Қалтаминор” силсиласи. // Мозийдан садо.2008,3-сон,-Б.32-33.

<sup>6</sup>Алимова Д. XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда маданият муаммоларини ўрганиш тарихидан//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.Т., 1995. №.10-11-12.-Б.93-95; Жуманазар А. Ўргимчак (Биринчи рисола).Т.Янги аср авлоди,2005.-Б.956; Зиёева Д.ХІХ аср охири ХХ аср бошида Туркистонда анъанавий таълим тизими муаммолари.//Тошкент Ислон университети.Илмий таҳлилий ахборот. 2009. №.3.-Б.10-12.Ислон ҳазораси. Т. Мовароуннаҳр. 2004; Маҳмуд Асъад Жўшон. Ислон, Тасаввуф ва ахлоқ.Т.: Истиқлол.2000.

<sup>7</sup>Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими.Т.,Адиб,2014; Холмонова Ф.Бухоро амирлигида миллий таълим ва унинг таҳлили. // Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт: трансформацион жараёнлар.Термиз,2013.-Б.160-162; Шаропов С. Бухоро амирлиги шаҳарларидиги маънавий муҳит.// Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт: трансформацион жараёнлар.Термиз,.2013.-Б.175-176.

<sup>8</sup>Комилхон Каттаев. Самарқанд мадрасалари ва илму-фан ривож.Самарқанд.2003.

<sup>9</sup> Комилхон Каттаев. Самарқанд мадрасалари ва илму-фан ривож.Самарқанд.2003.-Б.30-90

<sup>10</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими.Т.,Адиб,2014. 127 бет.

11 Abdusattor Jumanazar.Buxoro taʼlim tizimi tarixi.Т.,Akademnashr,2017.-592 bet

**Mavzuning maqsad va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi “Madrasalar – O`rta Osiyo islom madaniyati namunasi” deb tanlandi. Madrasalar to`g`risida so`zlanadigan bo`lsa, ular qo`mondon, ulamo, tujjor, podshoh va amirlar tomonidan hadya qilingan juda ko`p vaqflar evaziga keladi. Ularning soni haddan ko`p edi. Islom olamining bo`yi-yu enidan kezib, o`nlab muallim va mudarris ta`lim berayotgan bir necha madrasadan xoli biror shahar yoki qishloqni uchratmas edingiz, deb manbalardan birida ta`kidlangan edi.

Islom madaniyatida madrasalar o`rni, ularning faoliyati masalalarini batafsil va yahlit holatda yoritish maqsadida ushbu tadqiqotga qo`l urildi.

-Tadqiqotning birinchi bobi “Islom madaniyatida madrasalar o`rni” deb atalgan bo`lib, ushbu bob ikki band orqali yoritiladi. Birinchi bandda O`rta Osiyo madrasalari xususida fikr yuritilib, ularning ilmu-fan rivojida o`rni ko`rib chiqiladi. Ikkinchi bandda esa Buxoro madrasalari tarixi, faoliyati, undagi muammolar bayon etiladi.

-Tadqiqotning ikkinchi bobi “Madrasalar faoliyati va ularning muammolari”ga bag`ishlangan bo`lib, ushbu bobning birinchi bandida madrasalardagi ta`lim jarayoni ochib borilgan, ikkinchi bandida esa madrasalarning qurilishi va moddiy – jihatidan ta`minotiga oid masalalar xususidagi ma`lumotlar yig`ilgan.

Tadqiqotning xulosa qismida O`rta Osiyo mintaqasida o`tmishda mavjud bo`lgan madrasalar ilmu-fan maskani, ma`naviyat o`chog`i ekanligi, ularning o`sha davr taraqqiyoti uchun ijobiy jihatlari, bugungi kundagi madrasalar faoliyati ahamiyatiga oid fikr-mulohazalar bildiriladi.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, mustaqillik davrida nashr etilgan asarlar, ilmiy maqolalardan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.** “Madrasalar - O`rta Osiyo islom madaniyati namunasi” mavzusidagi ushbu tadqiqot kirish, ikki bob, to`rt band, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro`yxati va bet hajmdan iborat.

## **I-BOB. ISLOM MADANIYATIDA MADRASALARNING O`RNI**

### **1.1. O`rta Osiyo madrasalari va ilm-u fan rivoji**

“Madrasa” arabcha so`z bo`lib, “dars o`qitiladigan joy” degan ma`noni bildiradi. Madrasalar G`arb universitetlarinig Sharqdagi ko`rinishlari hisoblanadi. Ularda, odatda, 14 yoshlardan tahsil boshlangan. Muqimiy va Furqat kabi shoirlar aynan shu yoshlarida madrasada o`qiganlar.

Madrasa tahsili 21 sentyabrdan to 21 martga qadar, ya`ni 6 oy davom etadi. Navro`z arafasida xonning ta`til haqidagi farmoni chiqqach, o`qish tugatilgan va talabalar 6 oy davomida ta`tilda bo`lganlar. Bu paytda talabalar tirikchilik ishlari bilan shug`ullanganlar. Chunonchi, Abdulla Avloniy tarjimai holida kuz va qish oylarida o`qigani, bahor va yoz oylarida tirikchilik uchun ustalik bilan shug`ullanganini yozadi.<sup>12</sup>

Madrasalarda o`qish bir haftada 4 kun, ya`ni shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari bo`lgan. Qolgan uch kunda, ya`ni chorshanba, payshanba va juma kunlari mutolaa bilan shug`ullanib, olingan saboqlari takrorlangan.

Odatda, har bir mudarrisga 4 tadan 10 nafargacha talaba birkutilgan. Madrasalarda o`qish muddati 8 yilga mo`ljallangan (Muqimiy Qo`qon madrasalaridan birida 1864 yildan 1872 yilgacha tahsil olgan). Tahsilni vaqtida tugatolmagan talabalar o`z hisobidan o`qishgan.

Madrasa dasturiga ko`ra, darslar ikki guruhga, ya`ni ulumi naqliya (islomiy) va ulumi aqliya (dunyoviy) ilmlarga ajratilgan. Ulumi naqliyada- Qur`oni Qarim, Hadisi sharif, fiqh ilmlari, ularda yozilgan sharhlar o`rgatilgan. Ulumi aqliyada dunyoviy fanlar-falakiyot, riyoziyot, ilmi nujum, al-jabr, kimyo, geometriya, geografiya, tarix, falsafa, adabiyot, mantiq, arab tili grammatikasi, musiqa, xattotlik san`ati va axloq-odob ilmlari o`rgatilgan. Talabalar ona tilidan tashqari, fors va arab tillarini mukammal egallaganlar. O`quv yili oxirida esa maxsus imtihonlardan o`tishgan.

---

13 Атаев А. Мадрасалар тарихига бир назар//Мозийдан садо. Т., 2008, -Б.30.

Madrasalarda tartib-intizomga ham alohida diqqat qaratilgan. Madrasa nizomini buzgan talabaga 3 marta ogohlantirish berilgan. U yana intizomni buzsa, madrasadan chetlashtirilgan. Madrasani muvaffaqiyatli tugatgan talabalarga ta'lim olganligi haqida shahodatnomalar berilgan.

Madrasaning ichki hayotiga dahldor masalalar mutavalli, mudarrislardan tarkib topgan hay'at kengashida hal etilgan. Eng iste'dodli, barcha bilimlardan xabardor, hurmat-e'tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o'tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan.

Madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar – mutavalli, mudarris, hofiz, muhrdor, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni hamda ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan. Mutavalli vaqf kirimlari, madrasaning moliyaviy xarajati, ta'mirlash, xodim va talabalarga to'lanadigan haq va boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ovqatlik don hisobidan ajratilgan.

Alisher Navoiyning «Ixlosiya» madrasasida vaqf maoshi quyidagicha belgilangan:

-sadr mutavalliga ajratilgan yillik maosh 3 ming tilla va ovqatlig' uchun 30 yuk g'alla;

-har bir mudarrisga yiliga 1200 tilla va 24 yuk bug'doy yoki arpa ajratilgan.

Talabalarga to'lanadigan nafaqa:

-a'loga 24 tilla va 5 yuk miqdorida don;

-avsatga 16 tilla va 4 yuk g'alla;

-andoga 12 tilla va 3 yuk miqdorida don.

Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasida esa mudarris va xizmatchilarga to'lanadigan maosh quyidagicha belgilangan:

-har bir oxundga yiliga 150 tilla va 3000 botmon bug'doy;

-imomga yiliga 40 tilla va 2000 botmon bug'doy;

- boshqa xizmatchilarga har biriga 200 botmon g`alla ajratilgan;
- madrasa mutavallisiga vaqfdan tushgan umumiy daromadning o`ndan bir qismi to`langan.

Talabalarga to`lanadigan nafaqa:

- a`lo guruhidagi har bir talabaga yiliga 4 tilla va 60 botmon bug`doy;
- avsat guruhidagi talabaga 2 tilla, 30 botmon bug`doy;
- adno guruhidagi talabaga 1,5 tilla, 15 botmon bug`doy.

Muhammad Aminxon madrasasi nafaqat ilmiy salohiyat, shuningdek, moliyaviy xizmatdan ham eng boy madrasalardan sanalgan. Madrasaga qarashli vaqf mulki 35325 tanob<sup>13</sup> unumdor ekin maydonidan iborat bo`lib, bu erdan har yili 12 ming botmon<sup>14</sup> g`alla va 5 ming tilla daromad olingan. Ana shu daromad madrasaning 12 xizmatchisiga, mudarrisi va 260 talabasiga taqsim qilingan. Hozirda mazkur tarixiy obidalar – madrasalar davlat qo`riqxonasi nazorati ostida olingan bo`lib, har yili minglab xorijlik sayyohlar madrasa, masjid va muzeylarni tomosha qilishga kelishadi.

Ma`lumki, Xorazm boy tarixga ega bo`lgan, bir qancha allomalar etishib chiqqan ko`hna zamin hisoblanadi. Shu go`zal o`lkada joylashgan qadimiy va navqiron Xiva shahri esa ushbu muqaddas zaminning gavharidir.

Xiva shahri boy madaniyati, qo`hna tarixi, qadimiy osori-atiqalari, tarixiy obidalari bilan jahonda o`zining munosib o`rniga ega.

Xivaning qadimiy markazi bo`lmish “Ichan qal’a” tarixiy -me`moriy muzey qo`riqxonasi ko`hna moddiy va madaniy – ma`rifiy muassasa 1969 yilda tashkil qilingan bo`lib, u o`ziga xos an`analarni saqlash, o`rganish va targ`ib qilish bilan shug`ullanadi. 1991 yilda “Ichan qal’a” jahon merosi ro`yxatiga kiritildi. Muzey qo`riqxona 26 gektar maydonni egallagan bo`lib, 54 ta tarixiy obidani o`zida mujassamlashtirgan.<sup>15</sup>

Ushbu obidalar ichida Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi o`zining boy tarixi bilan alohida ahamiyatga molikdir. Xiva shahrida XIX asr oxiri va XX

---

<sup>13</sup> Бир таноб – 2-2,5 минг кв м ҳажмдаги ер майдони.

<sup>14</sup> Бир ботмон - 20 кг.

<sup>15</sup> Жабборов И. Антик маданият ва маънавий хазинаси. Т., Ўзбекистон, 1999. –Б.201-203.

asr boshlarida ko`plab madrasalar bor edi. 1851-1855 yillarda Xiva xoni Muhammad Aminxon farmoniga binoan qurilgan va uning nomi bilan ataladigan Muhammad Aminxon madrasasi ular ichida eng kaltasi hisoblanadi.<sup>16</sup>

Madrasa ikki qavatli, 125 hujradan iborat bo`lib, unda 260 talaba tahsil olgan. Madrasa yiliga 1200 Xiva botmoni (bir botmon 20 kg) miqdorda bug`doy va 5000 tilla pul daromad qilgan. Xon tomonidan bu madrasaga eng serhosil yerlardan 35325 tanob yer vaqf qilib berilgan. Madrasa qurib bitkazilgach, xon tomonidan madrasa yaqinida eng baland minora qurishga farmon beriladi. Minora 1851 yilda qurila boshlangan, qurilishi davom qilayotgan davrda, ya`ni 1855 yili Muhammad Aminxon Eronga yurish qiladi va Saraxsda 20 ta sardori bilan turkmanlarga asir tushib, qatl qilinadi, natijada u boshlagan minora bitmay qoladi.

Xalq orasida bu minora xususida turli rivoyatlar mavjud. Masalan: “Emishki, Xiva xoni eng baland va eng ulkan minora qurishni buyuradi. Uning tepasidan “Buxoroyi azim ko`rinib tursin”, deb ko`rsatma bergan. Bundan xabar topgan Buxoro amiri minorani bunyod etayotgan me`mor bilan yashirin tarzda kelishib oladi. Kelishuvga ko`ra, minora bitishi bilan me`mor Buxoroda bundan ham baland minora qurishi kerak edi. Amir me`morning xizmati evaziga uning og`irligiga o`n barobar keladigan tilla va`da qiladi. Xiva xoni esa buni sezib qoladi va minora bitishi bilanoq me`morni yo`q qilishga ahd etadi. Shum niyatdan ogoh bo`lgan usta minorani chala qoldirib g`oyib bo`lgan”. Shu bois xalq orasida bu haqda:

*“Madaminxon madrasasi bitdi, minorasi bitmadi, Madaminxon murodiga yetmadi”*, - kabi baytlar to`qilgan.

Minora shu hoida ham haybatli va chiroylidir. XX asr boshlarida xalqimiz uni “ulli minor”, “ko`k minor” deb, hozirgi kunda esa “Kalta minor”, deb atashadi.

Minoraning balandligi 29 m, diametri 14,2 m. Minoraning tepasiga gir aylana qilib koshinlariga yozilgan va XX asrning 20 – yillarida o`chirib tashlangan Ogahiyning 12 misrali she`ri bitilgan. 1997 yilda Xiva shahrining 2500 yillik

---

<sup>16</sup> Қаландаров М. Муҳаммад Аминхон мадрасаси ёхуд “Калта минор” силсиласи // Мозийдан садо.Т., 2008. 3-сон, -Б.32.

yubileyi munosabati bilan ta'mirshunos usta olimlar tomonidan Ogahiyning o'sha she'ri qaytadan tiklandi.<sup>17</sup>

Madrasada katta kutubxona va musulmon oliy sud boshqaruvi joylashgan. Ikki qavatli madrasa peshtoqi kitobasining chiroyli ko'k koshinlariga arab alifbosida "Olloh taoloning inoyati bilan zamon sultoni Abulg'oziy Muhammad Aminxon ibn Ollaqullixon nurli bo'lsinning amriga binoan, ushbu muqaddas madrasa yaxshiliklar maskani deya bino etildi", deb yozilgan. Madrasa bitishi bilan xon katta to'y beradi. To'yga kelganlarga sovg'alar ulashadi. Shoir va fozil kishilar she'riy ta'riflar bitib, minorani "falak ayvoniga qo'yilgan ustun", deb ta'rif berishadi.

Xivaning fusunkor manzarasi, ajoyib jozibasi, kishiga ma'naviy zavq bag'ishlaydigan estetik ko'rinishi insonni atrofdagi voqelikni hamda o'zini anglab olishgan va his qilishga yordam beradi. Bunday go'zal obidalar ajdodlari bunyodkor bo'lgan yoshlar qalbida g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmi va bizning asrimiz boshlarida Xiva xonligida hukmronlik qilgan Feruz zamonida ilgari vayron bo'lib ketgan binolar va inshootlar qayta tiklandi, yangi kanal va ariqlar, karvon saroylar va bozorlar, oltmishga yaqin madrasalar va masjidlar barpo etildi, yangicha maktab va tabobat markazi ochildi. Asrimiz boshlariga kelib xonlikda 130 madrasa, 1636 masjid va 1500 maktab bo'lgan. Xonning farmoni bilan davlat hisobidan ta'lim beruvchi mudarrislar, oxunlar, imomlar mablag' bilan ta'minlab turilgan.<sup>18</sup>

Kishilik jamiyati shakllanib, ilmu urfonga yuz tutilgandan beri inson zakovatining mahsuli har bir sohada o'zini namoyon qilgan. Bu hol, ayniqsa insoniyat dunyoqarashining shakllanishida, o'zligini anglashida ulkan ahamiyat kasb etib kelganligida hamda "Uyg'onish davri" nomini olgan Markaziy Osiyo tamadduni-sivilizatsiyasi davrida ilm-fan benihoya taraqqiy etib, madaniyat yuksalganligida ko'rinadi.

---

<sup>17</sup> Салимова Б.Х. Хоразм-жаҳон туризми маскани // Инсониятнинг илмий ва маданий мероси-учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағ'ишланган халқаро симпозиум тезислари. Т., Ўзбекистон. 1997. –Б.228.

<sup>18</sup> Жабборов И. Антик маданият ва маънавий хазинаси. Т., Ўзбекистон, 1999. –Б.203.

Tarixda shunday voqealar bo'lganki, ular dunyo tarixining o'zgarishiga, insoniyatning ijtimoiy, diniy, madaniy va ma'rifiy rivojlanishiga sabab bo'lgan. Bu voqealarning eng buyugi Qur'oni karimning nozil bo'lishi, islom dini va madaniyatining vujudga kelishi edi. VII asrning birinchi yarmida ro'y bergan ushbu voqea keyinchalik o'zga yurtlarda ham ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi va birinchi navbatda insoniyat ilmiy tafakkurining benihoya yuksalishiga asosiy turtki beradi.

Arab xalifaligining Islom dini zahirida Yaqin va O'rta Sharq, shimoliy Afrika, janubi-g'arbiy Yevropa hududlarida olib borilgan fathiya-istilo yurishlari oqibatida hamda arab va ushbu hudud xalqlari madaniyatlarining aralashuvi natijasida VII-X asrlar orasida Islom madaniyati yuzaga keladi. Bu madaniyatning paydo bo'lgan va takomillashgan avvalgi davrlari hisoblangan. Ummaviylar sulolasi zamonida istilo etilgan xalqlar madaniy merosi yangi mafkura ta'sirida ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ijodiy jihatdan yangidan baholanib takomilga etkazilgan edi. Yangi din hech bir tazyiqsiz muomalaga kiritilar, yangi madaniyat esa istilo etilgan hududlardan xalqlarning milliy urf-odatlarini kamsitmagan hamda milliy sohibxiyorlik huquqlarini chegaralamagan holda tadbiq etilar edi. Shuning uchun ham O'rta Sharq, Markaziy Osiyo, Eron, Kichik Osiyo va Kavkaz orti hududlarida yashab kelayotgan xalqlar o'zlarining azaliy urf-odatlarini hozirga qadar asrab qolishga erishganlar hamda keyinchalik xalifalikdan ajralib istiqloliyatga yetishganlar.

Fathiyalar natijasida islom diniga kirgan xalqlar bu adolatli dinni tez qabul qildilar, uning boshqa dinlardan tubdan afzalligini ko'rdilar va tushundilar. Shuning uchun ham g'ayridin munofiqlar tomonidan qilingan isyon-u qo'zg'olonlar va fitnalar xalq ommasini tomonidan qo'llab-quvvatlanmas va tezda bostirilar, bu esa, islom dinining barcha tomonidan tan olinganligining dalili edi. Vaholanki, fathiya davrida, masalan, Samarqandda nafaqat zardushtiy, balki nasroniy, buddaviy, monaviy va yahudiy dinlari ham faoliyat ko'rsatganligi ma'lumdir.<sup>19</sup>

---

<sup>19</sup>Комилхон Каттаев. Самарқанд мадрасалари ва илму-фан ривожі.Самарқанд, Зарафшон. 2003.-Б.5.

Abosiylar sulolasi davrlariga (VIII-IX asrlar) kelib islom madaniyati o`zining kamolot avjiga va shukuhiga erishadi. Bu davrdan boshlab xalifalik poytaxti bo`lgan Bog`dod shahri ikki asrdan ziyod vaqt davomida islomiy Sharq ilmi va madaniyatining asosiy moddiy hamda intellektual quvvati yig`ilgan markaziga aylanadi. Horun ar-Rashid, Ma`mun va boshqa abbosiy xalifalarini tashabbuslari hamda homiyliklari natijasida dunyodagi ko`plab ilmiy manbalar poytaxt Bog`dodga yig`ilar, tarjima etilib kitobat etilar va natijada islom dunyosidagi eng iqtidorli ilm ahllari bu yerga oqib kelar edilar.<sup>20</sup>

IX asr o`rtalariga kelib xalifalikda abbosiyar sulolasining inqirozi boshlangani tufayli tashkil topgan mustaqil islomiy hududlar jumlasiga kirgan Movarounnahrda ilm-u fan nihoyatda rivojlanadi hamda **“bilimlarning oltin davri”** atalmish davrning bayroqbardori bo`lgan yurtimizda fan va madaniyat eng yuqori cho`qqiga erishadi. Yurtimiz ilm ahlining asosan IX-X va XII asrlarda jahon fani va madaniyati tarixida qo`shgan yuksak hissasining ahamiyati hamda qimmatini shundan ham iboratkim, buyuk allomalarimiz ilmiy, diniy-falsafiy va axloqiy yangi bilimlarni yaratish, kashf etish vositasida ilmiy tadqiqotlarga sa`yi harakatni boshlab bergan edilar.

Shunday qilib, ayniqsa, VII asrning ikkinchi yarmida islomning fathiya yurishlari natijasida, qadimiy madaniyat negizi bo`lgan yurtimizda islom dinining kirib kelishi va ikki yurt xalqlari bilimi, ilmi va madaniyatining qo`shiluvini natijasida Markaziy Osiyoda insoniyat tafakkuri tarixida misli ko`rilmagan ilmu urfon o`chog`i vujudga keladi hamda takomillasha boradi.

Islom dini va madaniyati hijriy yilning 22-sanasi, ya`ni milodiy 644 yilda Markaziy Osiyoning avval Marv shahriga, keyin (o`sha yillardan boshlab) yurtimiz Movarounnahrda ham kirib kela boshlagan.

Fath etuvchilar yurtimizga islom dini bilan birga yangi bilimlarni ham keltirgan edilar. VII asr o`rtalari va VIII asrlar boshlarida boshlangan bu jarayon natijasida, IX-X asrlarga kelib yurtimiz xilma-xil bilimlarning, jumladan Qur`on

---

<sup>20</sup>Хожи Исмаиуллох Абдуллох. Марказий Осиёда Ислам маданияти. Т., Шарқ. 2005.-Б.23-24.

tafsiri, fiqh, hadisshunoslik, tavhid-kalom, axloq, falakiyot, handasa va tasavvuf kabi asosiy ilmlarning markaziga aylana bordi.

Ilk o`rta asrlarda Yaqin va O`rta Sharqda, jumladan, Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy –iqtisodiy va madaniy – siyosiy rivojlanish jarayoni o`sha davr Sharqida ilmiy tafakkurning yuksak darajaga ko`tarilishiga sababchi bo`lgan o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turganligini, ya`ni o`sha davr musulmon olamida nafaqat diniy, balki, umuman barcha bilimlar shariy fiqh va kalomiy ilohiyotshunoslikdan iborat ekanligini ko`ramiz.

Umumiy tarzda **“Ulum ul-islom”** (ya`ni islomiy ilmlar) deb atalgan bilimlar bu dinning ilk tarafdorlari tomonidan har qanday bilimlardan yuqori qo`yilgan hamda ularning barchasining asosini Qur`on tashkil etadi, deb hisoblab kelishgan.<sup>21</sup> Ammo bu bilan tabiiy va ma`rifiy-axloqiy bilimlar ilk islom davrlarida kam olib borilgan, deb bo`lmaydi, albatta. Ularning yuksak rivoji hali oldinda edi.

Ilk marta muqaddas zaminimizda paydo bo`lgan va shakllangan madrasalar islom dini va madaniyati zahirida jumla allomalarni jahonga tuhfa qildiki, bu buyuk insonlar turli ilmlarning peshvosi, asoschilari sifatida dovrug` taratdilar. Chunonchi, Imom al-Buxoriy, Imom al-Doramiy, Imom at-Termiziylar hadisshunoslikda; Imom az-Zamaxshariy va Abu Nasr Javhariy tafsir va grammatikada; Imom al-Moturidiy va Imom Abulqosim al-Hakim ilmi kalom va hikmatda; Imom ar-Rastug`foni, Imom Abu Laysiy, Imom an-Nasafiy, Imom Burxoniddin Marg`inoniy, allomai Taftazoniy, Ubaydullo ibn Mas`ul fikshunoslikda; Al-Farg`oniy, al-Xorazmiy, Mirzo Ulug`bek, Ali Qushchi falakiyot va handasada; Al-Forobiy, al-Beruniy qomusshunoslikda; Yassaviy, G`ijduvoni, Kubraviy, Naqshbandiy, xoja Ahrori Vali, Maxdumi A`zami Dahbediylar tasavvufda; Ibn Sino va Yusufiy tibbiyotda; Navoiy va Bobur Mirzolar she`riyat va tarix sohalarida ulkan yutuqlarni qo`lga kiritib, yurtimiz shuhratini dunyoga yoydilar.

---

<sup>21</sup> Комилхон Каттаев. Самарканд мадрасалари ва илму-фан ривожі.Самарканд.2003.-Б.6.

Yuqorida nomlari zikr etilganlar sohalarining ulug` darajali sohiblari, nazariyotchilari sifatida tan olinib, ularning asarlari hozirga qadar asosiy manbadasturul amal bo`lib kelmoqda.

Madrasalarda shakllangan ilmlar ichida, ayniqsa fiqh, hadis, kalom, tafsir, falsafa, tasavvuf, tariqiy ta`limotlari kabi bilimlar keng quloch yozgan edi. Bu ishlarning keng rivojlanishiga, bir tomondan ilk madrasalarning muqaddas yurtimizda shakllangani sabab bo`lsa, ikkinchi tomondan esa, hadis ilmi Imomlarining Imomi, buyuk muhaddis alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, kalom ilmining Imomi Abu Mansur al-Moturidiy, fiqh ilmining Imomi Burxoniddin Marg`inoniy, tafsir ilmining Imomi az-Zamaxshariy va tasavvuf tariqatlarining buyuk namoyandalaridan anchalari yurtdoshimiz bo`lishgani ham edi. Barakotli bu zotlar yashab o`tgan davrni, yuqorida aytganimizdek, bir ovozdan “ilmlarning oltin davri” deb e`tirof etishgani ham bejiz emas, albatta.

Shul tariqa, bilimlarning uyg`onish davri markazi yurtimiz Movarounnahr bo`lib qoladi.

Arabcha “darasa” (o`rganmak) so`zidan bo`lib, joy nomi, ya`ni dars oladigan, o`qiladigan joy. Madrasalar musulmonlarning o`rta va oliy o`quv yurti. Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarida hozirgi vaqtda madrasalarda davlat muassasalari xodimlari ham tayyorlanadigan bo`lib ketdi.

Madrasalar dastlab VII – VIII asrlarda Islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo bo`ldi. Keyinchalik masjidlar qoshida ilohiyot markazlari tashkil topdi, madrasa deb atala boshladi. IX-XIII asrlarda madrasalar islom dini tarqalgan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda paydo bo`lib, madrasa uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Madrasalarni shoh, xon, amir va sultonlar, yirik yer egalari va davlatmand kishilar o`z mablag`lari hisobidan qurdirganlar. Madrasaga diniy maktabni bitirgan bolalar qabul qilingan. Madrasalar o`quv dasturlari X-XII asrda ishlab chiqilgan. Madrasalarda ta`lim uch bosqichda: boshlang`ich (adno), o`rta (avsat) va yuqori (a`lo) bilimlarda olib borilgan.

Markaziy Osiyo madrasalarida arab va fors tilida yozilgan diniy kitoblar o`rgatilgan. Dastlab fors tilida yozilgan “Avvali ilm” kitobi, keyinchalik arab grammatikasi chuqur o`rgatilgan, undan keyin “Hidoya”, “Fiqh Kaydoniy”, “Muhtasar viqoya”, “Sharhi viqoya” kabi kitoblar asosida shariat aqidalari o`qitilgan. Madrasada tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, jug`rofiyo va boshqa fanlar ham o`rgatilgan. Talabalar darsni o`zlashtirishlariga qarab madrasalarda 15-20 yillab o`qiganlar.

Madrasalar o`z davrida fan va madaniyat markazi hisoblangan. Ular diniy ta`lim berish bilan birga, dunyoviy bilimlar berilgan asosiy o`quv yurtlari vazifasini o`tagan.<sup>22</sup>

## **1.2. Buxoro madrasalari – ma`naviyat o`chog`i**

O`rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi.

Buxoroda VIII-X asrlarda quyidagi madrasalar faoliyat yuritgani haqida ma`lumot bor;

Abu Xafs al-Kabir madrasasi VIII asr oxiri-IX asr boshlarida qurilgan. XIV asrda yozilgan Abduqodir ibn Abul Vafo al-Qurayshiyning “Al-javohir al-mudiyafi tabaqat al-hanafiya”(Hanafiya taboqatida javohir yoqutlari) asarida bu madrasada mudarrislik qilgan bir qancha yirik faqihlar haqida ma`lumot bor.

Abu Bakr ibn al-Fazl madrasasi IX asr oxiri va X asr boshlarida qurilgan va bu madrasa haqida Abdulkarim as-Sam`oniy ma`lumot qoldirgan.

Farjak madrasasi haqidagi dastlabki ma`lumot Narshaxiyga tegishlidir. Bu madrasa Buxoroning eng qadimiy madrasalaridan biri bo`lgan, milodiy 937 –yilda yong`in oqibatida vayron bo`lgan. Keyinchalik qayta tiklangan. As-Sam`oniy uni Farjak darvozasi oldida edi, deydi.

Timchai Xon madrasasi haqidagi ma`lumotlar Muin al-Fuqaro Ahmad ibn-Mahmud axborot beradi.

---

<sup>22</sup> Хожи Исмаатуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. Т., Шарқ. 2005.-Б.325-326.

Imom ul-Muslimin madrasasi dastlab qorixona bo`lgan. Keyinchalik madrasaga aylantirilgan deb taxmin qilinadi. Bu madrasaning o`rni hozircha aniq emas. Lekin Abu Hafs Kabir Buxoriy mozorida joylashganligi taxmin qilinadi.

Tarixchi Ishtaxriyning ma`lumot berishicha, X asrda Buxoroda 120 ta madrasa bo`lib, ularda 5000 dan ortiq tolibi ilmlar tahsil olganlar. Shu davrda shahar va uning atrofidagi aholi soni 1,5 milliondan ortiq bo`lgan.<sup>6</sup> Lekin, bu ma`lumotlar amalda isbotlangan emas, ya`ni yuqoridagi 120 ta madrasa to`liq o`rganilmagan. Bu madrasalarning vaqf hujjatlari, ularning joylashgan joyi topilmagan. Bu davr madrasalari haqidagi ma`lumotlar boshqa tarixchilarning asarlarida ham juda siyrakdir. Bu borada qilinadigan ishlar hali juda ko`p va o`z tadqiqotchisini kutmoqda.

XI-XV asrlarda Buxoroda 15 madrasa faoliyat yuritgan. Lekin bu oxirgi natija emas. Buxoro madrasalarini izlab topish ishi o`z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Bu davr madrasalaridan eng yiriklarini ko`rsatib o`tamiz.

Kulartegin madrasasi Baqqollar guzarida joylashgan. Narshaxiy kitobida qurilish haqida keng ma`lumot bergan. Bu madrasani qoraxoniylar hukmdori Kulartegin (1099-1102) qurdirgan.<sup>7</sup>

Arslonxon madrasasi Xon madrasasi deb ham yuritiladi. Muhammad Sharif maxdumning aytishicha, uning asl ismi Kalaboddir. XII-XVII asrlarda Arslonxon madrasasi nomi bilan mashhur bo`lgan.

Imom Muhammad G`azzoliy madrasasi So`fiyon dahasida Imom G`azzoliy guzarida joylashgan. Bu madrasaning qurilgan vaqti aniq emas. faqat mashhur alloma Muhammad G`azzoliy at-Tusiy yashagan (1058-1111) davrga asoslanib shu davrda qurilgan deb aytish mumkin.

Xoniya madrasasi XIII asrning birinchi yarmida Ulug` Munkaxonning onasi tomonidan qurilgan. U katta va chiroyli bo`lgan. Bu madrasaga Shayx ul-Olam Sayfiddin Boxarziy mutavalli etib tayinlangan.

---

<sup>6</sup> Samoviddin Husenov, Ibodat Rajabova. Chor Bakr. -Toshkent: -"Sharq"-2001 y.

<sup>7</sup> A. Jumanazar. Buxoro ta`lim tizimi tarixi. -Toshkent: Akademnashr; 2017. -592 b.

Mas`udiya madrasasi Mir Mas`ud guzarida joylashgan.Bu madrasa Buxorodagi o`z davrining eng yirik va chiroyli madrasasi bo`lgan ekan.Uni Chig`atoy ulusi noibi Mas`udbek qurdirgan.Bu to`g`risida Rashiddin Fazlulloh Hamadoniy ham yo`zib qoldirgan.

Xoja Bulg`oriy madrasasi shu nomdagi guzar masjidi bilan bitta edi.Bu shaxs XIII asrda Buxoroda yashagan.

Bu madrasalardan faqat Arslonxon madrasasining vaqf hujjati hozirgacha saqlanib qolgan xolos.Joyboriy Abdurahimxoja Kalabod madrasasini qayta qurdirib,unga mulklar vaqf qilinganida tuzgan hujjati oldidan Arslonxon madrasasi vaqf hujjatini ham keltiradi.

Xorchok madrasasi Abul Muhsin Muhammad Boqirning “Maqomati Xoja Naqshband”asarida nomi uchradi.Bu madrasa Farjak madrasasi bilan bitta bo`lgan bo`lishi mumkin deb ham taxmin qilinadi.

Xoja Muhammad Porso madrasasi Buxorodagi eng ko`hna va sho`rolar inqilobi davrigacha faoliyat yuritgan madrasa bo`lib hisoblanadi.Uning nomi ilk bor hijriy 810-yili (1407-1408) tuzilgan vaqf hujjatida uchraydi.<sup>8</sup>

Mirzo Ulug`bek madrasasi doimiy ravishda tadqiqotchilarning e`tiborini tortib kelgan.Bu madrasa Mirzo Ulug`bek tomonidan qurilgan.Madrasaning bir nechta vaqf hujjati saqlanib qolgan.Mirzo Ulug`bek madrasasiga o`z davrining eng yirik va obro`li mudarrislar dars berishgan.<sup>9</sup>

XVI asrdan boshlab Buxoroda qurilish sohasida katta ishlar amalga oshirildi.Jumladan,madrasalar qurish ishlari jadallashdi.Shayboniylar,ashtarxoniylar va mang`itlar davrida xon va amirlar,qushbegi,devonbegi,qozikalon,mufti,mehtar va boshqa mansabdagi shaxslar o`zlarining mablag`lari hisobidan madrasalar qurishgan.Quyida bu madrasalardan eng yiriklarini sanab va ular haqida ma`lumot berib o`tamiz.

Mir Arab madrasasi tarixiy manbalarda Ko`yi xonaqoh guzarida joylashgani va 111 hujradan iboratligi ko`rsatilgan.Biroq,hozirgi mualliflar hujralar sonini

---

<sup>8</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta`lim tizimi tarixi.-Toshkent:Akademnashr;2017.-592 b

<sup>9</sup> O`sha asar.

Qur'oni sharif suralariga moslab 114 ta hujra deb ma'lumot berishmoqda."Buxoro ta'lim tizimi tarixi" monografiyasida Mir Arab madrasasiga oid faqat bitta vaqf hujjati topilganligi aytilgan. Bu hujjatda madrasa hujralari soni ko'rsatilmagan. Bu hujjat ilgari namda yotgani sababli bir tomoni mog'orlagan va yozuvlariga ham zarar yetgan.

Hujjatdagi ma'lumotga ko'ra, madrasaning sharqiy qismida hazrat Mir Arabning mulki, ko'cha, mavlona Muhammad Miskin madrasasi vaqf yerlari; g'arbida ko'cha, janubida ko'cha va Mavlona Muhammad Miskin madrasasi vaqf yerlari bo'lgan.

Mir Arab madrasasi shayboniy Ubaydullaxon davrida hijriy 942-yili (1535-1536) Sayyid Abdulloh Yamaniy tomonidan qurdirilgan. Mashhur shaxs XV asrda 22 yoshida ilm olish maqsadida Yaman mamlakatining Al-Xizirmavt degan joyidan Movarounahrga keladi. Uzoq yo'l yurib, horib-tolib Samarqandda to'xtaydi va tariqat ahlining qutb ul-aqtobi hidoyatpanoh Xoja Ahror Valiy xizmatiga kiradi. Shu tariqa u Xoja Ahror Valiyning suyuqli suhbatdoshi va ulug' izdoshlaridan biriga aylandi. Keyin ustozining maslahati bilan Buxoroga boradi va mustaqil ravishda irshod bilan mashg'ul bo'ladi, xalqni hidoyatga chorlaydi.

Shayboniylardan Abug'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shox Budog`Sulton ibn Abulxayrxon uning eng sadoqatli muridi va do'stlaridan edi. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatida shayboniyszoda undan maslahat so'rar edi. Najmiddin Soniy ustidan qozonilgan g'alabadan keyin o'zbek sultonlari 1513-yil Xurosonga yurish boshlaydilar. Ubaydullaxon erishilgan yutuqlar va boy o'ljalarining qo'lga kiritilishida pirining ham xizmati katta va unga o'zining minnatdorchiligini bildirish maqsadida Amir Yamaniyga katta tuhfalar in'om etadi. U o'zidan yana mablag'lar qo'shib, ularni madrasa qurishga sarflaydi.

Shu tariqa hozirga qadar go'zalligi va mahobati hamda qadimiy shon-shuhrati bilan barchani lol qoldirib kelayotgan ushbu mo'jizaviy bino dunyoga keladi. Ba'zi mualliflar uning tarxini Amir Abdulloh Yamaniy o'zi chizgan deydi.

Hazrat shayx Abdullah Jahriy Buxoriy naql qiladi: "Mir Arab madrasasi qurilayotgan paytlarda hazrat salolohu alayhi vasalam g'ayb olamidan Buxoro

minorasi etagida paydo bo`ladilar. Davlati iqbolidan muborak oyoqlarini bino toqlari o`rtasiga qo`yib:”Bu minoraning asl tayanchidir. Bu madrasa hali hisobsiz xalq kamol topishiga muntazirdur”,-deydi. Ammo Mir Arab hazratlari boshlagan ishining samarasini ko`ra olmaydi. Nosiriddin Hanafiy ma`lumotga ko`ra, u hijriy 932-yili (1525-1526) vafot etadi. Uni o`z madrasasining bir chekkasiga maxsus hozirlangan joyga dafn etishadi. Yurtimizda mavjud bo`lgan madrasalar orasida faqat shu madrasagina hozirga qadar uzluksiz faoliyat ko`rsatmoqda. U Buxorodagi to`rtinchi darajadagi oliy toifali madrasalar qatorida edi. Abdurauf Fitratning ta`kidlashicha, uning yillik vaqf mablag`i 150 ming tangani tashkil etgan.

Bu oliy o`quv dargohida XIX-XX asr boshlarida mufti va banoraspo`sh mudarrislar dars berishgan. 1643-yilda tuzilgan vaqf hujjatida uch nafar mufti mudarrislik qilgani yozilgan. Mudarrisning yillik maoshi o`n bir ming tanga edi.<sup>10</sup>

Mir Arab madrasasi bugungi kunda ham faoliyat yuritib kelmoqda. Bilim yurti mudiri M. No`monov bergan ma`lumotga ko`ra, unda hozirgi paytda yuzdan ortiq talaba ta`lim olmoqda. Ularga 24 nafar oliy va o`rta maxsus ma`lumotli mutaxassis dars o`tadi. Mustaqillik davrida belgilangan o`quv dasturi bo`yicha o`qish muddati uch yil etib belgilangan. Bitiruvchilar o`eta ma`lumotli islomshunos, imom-xatib va arab tili o`qituvchisi bo`lib yetishadi. Ular keyinchalik Toshkent islom universiteti, Toshkent islom oliy ma`hadida o`qishlarini davom ettirib, bu yerda olgan bilimlarini oshirishlari mumkin.

Ushbu o`quv dargohi O`zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidadir, o`quv faoliyati mazkur idora tomonidan boshqariladi.

O`z davrining yirik madrasalaridan yana biri bu Qo`sh Madrasadir. Bu madrasalar Qosh madrasa guzarida joylashgan. Bu madrasalar yonida hozir Buxoro istirohat bog`I, Buxoro IIB, Sadridin Ayniy nomidagi teatr joylashgan. Madrasalar bir-biriga qarama-qarshi qilib qurilgan. G`arb tomonda joylashgan madrasa Abdullaxonning g`arbiy madrasasi deyiladi, sharq tomonda joylashgan madrasa esa Abdullaxonning sharqiy madrasasi yoki onasiga atab qurdirgani uchun Modarixon madrasasi ham deyiladi (kopincha Modarixon madrasasi deyiladi).

---

<sup>10</sup> A. Jumanazar. Buxoro ta`lim tizimi tarixi. - Toshkent: Akademnashr; -2017. -592 b.

Gʻarbiy madrasani shayboniy hukmdorlarining mashhur vakili Abdullaxon ibn Iskandarxon ibn Jonibekxon ibn Abulxayrxon tomonidan barpo etilgan.Uning qurilishini Hofiz Tanish Buxoriy ajoyib taʼriflagan.

Bu madrasa davrining eng oliy va eng boy oliy oʻquv dargohi edi.Uning moddiy taʼminoti unga ajratilgan vaqf mulki hisobidan taʼminlangan.Vaqf hujjati saqlanib qolgan.Uning bosh qismi teridan ishlangan qogʻozga nasx xati bilan yozilgan. Tili arabiy va forsiy.Abdullaxon ismi tilla rangda qayd etilgan.Ammo hujjat eskirgani sababli yorqin zarrin rang xiralashib,yarqirashi yoqolgan.Hujjatning eni 32,5 sm.Uzunligi bir necha metrni tashkil etadi,hujjat 1594-yil 11-martda tuzilgan.Bu hujjat asl hujjatdir,uning Amir Maʼsum davrida koʻchirilgan nusxasi ham mavjud.Bu madrasaning boy kutubxonasi ham bor edi.Kutubxonada tib,hikmat,mantiq,nahv,tafsir,hadis va limning boshqa sohalariga doir koplabvaqf qilingan kitoblar saqlanar edi.Ular orasida Mahmud az-Zamaxshariy,Imom Gʻazzoliy kabi bir qancha buyuk mutafakkirlarning asarlari saqlanar edi.<sup>11</sup>

Modarixon nomidagi madrasalar Buxoroda koʻp boʻlganligi tufayli bu madrasaning vaqf hujjati ustida Abdullaxonning sharqiy madrasasi deb yozilgan.Bu madrasa qarshisidagi madrasadan 15 yil keyin qurilgan.U ham oliy toifa madrasalar qatoriga kirgan.Abdurauf Fitratning aytishiga koʻra,vaqf mablagʻi yiliga 40000 tangani tashkil etgan.

Buxorodagi mashhur madrasalardan yana biri bu Gavkushon madrasasidir.U Gavkushon guzarida,Qarshi darvozasi yoʻlida,oʻttiz bitta hujradan iborat edi.Vaqf hujjati saqlanib qolgan.Bu hujjatda mazkur madrasa hijriy 977-yil shavvol oyida (1570-yil mart-aprel) Joʻybor shayxlaridanXoja Kalonxoja nomi bilan mashhur Nosiriddin Xoja Saʼd tomonidan qurilgan.U yuqori va pastki hujrali,ichki va tashqi sahnli,peshtoqli hamda tahoratxonasi bor edi.Vaqf hujjati oʻlchami 19,5 sm juda ensiz qogʻozga yozilgan.Yozuvi nastaʼliq,tili arabiy,forisiy.

Bu madrasa toʻgʻrisida boshqa tarixiy manbalardan ham maʼlumot topsa boʻladi. Masalan, ulardan birida:”Ilgari sagʻir moli soʻyiladigan joy boʻlganidan

---

<sup>11</sup> A.Jumanazar.Buxoro taʼlim tizimi tarixi.-Toshkent:Akademnashr;-2017.-592 b.

shunday (ya'ni Gavkushon) atalgan",-deyiladi.U Buxoroning beshinchi darajadagi eng oliy toifadagi madrasalarning ikkinchisi edi.Abdurauf Fitrat uning yillik vaqf mablag'ini 190 ming tanga deydi.<sup>12</sup>

Abdulazizxon madrasasi 1652-yilda Ashtarxoniylar (yoki Joniylar)dan bo'lgan Nodir Muhammadning o'g'li Abdulazizxon hukmromligi davrida mashhur me'morlar-Muhammad Solih,naqqosh-husnixatchi Mavlono binni Xo'ja Muhammad Amin,kulol-sirchi Xoji bobolar tomonidan bino etilgan.Bu me'moray obida o'zidan oldin qurilgan binolardan o'zgacha uslubda bunyod etilganligi bilan ajralib turadi.<sup>13</sup>

Abdulazizxon madrasasida sho'rolar inqilobiga qadar ilmiy hayot mavj urib turgan.U oliy toifadagi madrasalar sirasiga kirgan.Yillik vaqf mablari 120 mingni tashkil etgan.Unda ikki nafar mudarris dars o'tgan.Keyingi yillarda bu madrasada mulla Ne'matulloh va mulla Qurbon talabalarga dars berishgan.Madrasaning vaqf hujjati mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar uchrasada,hozircha topilgan emas.Shunga qaramay madrasa faoliyatini yoritadigan bir nechta hujjat saqlanib qolgan.Ulardan birini qozikalon Abdushukur yozgan,ikkinchisini qozikalon mulla Badriddin tayyorlagan,uchinchisi esa bemor talabalar ro'yxatidir.

Shoir Xurramiy "Al-oshiq risolai ravzati Xurramiy"nomli asarini Abul Mansur Sayyid Abdulaziz Bahodirxonga bag'ishlagan.Asar bosh qahramoni- Abdulazizxon.Ushbu asar Hamid Sulaymon xazinasida 755-4 raqami ostida saqlanmoqda.<sup>14</sup>

Yana bir mashhur madrasalardan biri bu- Ko'kaldosh madrasasidir.Ko'kaldosh madrasasi Buxoro davlatining o'ziga xos fanlar akademiyasi edi.Bu bejiz emas.Uni albatta,bugungi kunda dunyoda mavjud bo'lgan ilm-fan akademiyalari yoki ta'lim tizimi boshqaruvlari bilan taqqoslab bo'lmaydi.O'rtadagi tafovud juda katta.Buxoroda ilm va ta'lim-tarbiya tizimining eng oliy toifadagi olimlari-oxund,a'lam,muftilar biror masalani hal etish maqsadida,odatda ushbu madrasaga yig'ilishardi.Abu Abdurahmon Abdulloh

---

<sup>12</sup> O'sha asar.

<sup>13</sup> I.Muhsinov,M.Muhsinova "Go'zallikning boqiy umri".-Buxoro;-2011 y.

<sup>14</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta'lim tizimi tarixi.-Toshkent:Akademnashr;-2017.-592 b.

oxund Ko`kaldosh madrasasi bilan bog`liq bir ma`lumot beradi:”Buxoroda faqat birgina oxund bo`lgan.Ya`ni o`n bir nafar muftidan biri Gavkushon madrasasida a`lam unvoniga yetgach undan so`ng Ko`kaldosh madrasasida oxund bo`lardi va undan boshqa o`ringa bormasdan shu yerda vafot etardi.Shu sababli Ko`kaldosh madrasasini oxundga nisbatan Darvozai mar, ya`ni o`lim qopqasi derlar.

Ko`kaldosh madrasasi shayboniy hukmdor Abdullaxon davrida hijriy 976-yili (1568-1569) Qulbobo Ko`kaldosh tomonidan qurilgan.U saroyda oliy mansablardan biri ko`kaldoshlik lavozimida ishlagan.Qadimgi turkiylar boshqa onadan tug`ilib, ammo bir onani emgan ikki go`dakni ko`kaldosh, ya`ni emikdosh deb atashgan.Shu sababli ba`zi manbalarda So`fi Qulboboni Abdullaxonning emikdosh deb atashgan.Lekin bu emikdoshlikning to`g`ridan-to`g`ri tarixiybayoni hech qayerda yoq.

Buxoro davlatida ko`kaldoshning vazifasi mamlakat ichkarisidagi tartibni nazorat qilish, millat va davlat hamda oliy hukmdor xavfsizligini ta`minlashdan iborat edi.Unga ko`plab xufiyalar xizmat qilib turishgan.

Qulbobo Ko`kaldosh ilm va adab ahlini nihoyatda qadrlagan, ularga rahnamolik qilgan.Ularning arz-u dodlarini tinglagan, xonga yetkazib turgan, mushkullarini oson etishga ko`maklashgan.Vaqt- vaqti bilan shoirlarni to`plab saroyda mushoiralar o`tkazgan.G`oliblarni munosib taqdirlagan.

Uning marhamati va mehribonligi bilan mashhur faylasuf ulamoYusuf Qorabog`iyning ustoz Mirzajon Sheroziy Buxoroga keladi.Hofiz Tanish Buxoriy bu to`g`rida shunday deb yozadi:”U dastavval Sheroz tumanidan Balx tumaniga keladi va Qulbobo Ko`kaldosh vositachiligi bilan onhazratga uchrashadi.O`sha majlisda a`lo hazrat uni e`zoz-u ikrom qilib, Buxoro tomonga yuboradi va o`zining oliy madrasasiga mudarris qilish xabari bilan xushnud qiladi”.

Qulbobo Ko`kaldosh Buxoroda qurdirgan madrasadan tashqari 1577-1578-yillarda Toshkentda yana bir ajoyib madrasa qurdirgani haqida ma`lumot bor.Biroq bu axborot bahsli.Ehtimol Toshkentdagi Ko`kaldosh madrasasiga uni qandaydir aloqasi bordir.Bu masala ham o`z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Abdullaxon Ko`lob qal`asini zabt etib,Toliqonga keladi.Shunda Qulbobo Ko`kaldosh bu yerda ham 1584-yili madrasa qurdiradi.

Qulbobo Ko`kaldosh hazratlari yana bir nechta masjid va boshqa imoratlar qurdirgani tarixda mavjud.<sup>15</sup>

Buxoroda eng nufuzli madrasalardan yana biri bu Jo`ybori Kalon madrasasidir.Bu madrasa Havzi Nav guzarida joylashgan,29 hujradan iborat.U ayrim manbalarda Oyposhsha oyim madrasasi deb ham ataladi.Uning bir nechta nusxadan iborat vaqf hujjati saqlangan.Ulardan biri asl,qolganlari Amir Ma`sum davrida ko`chirilgan nusxalardir.Ularning orasida deyarli farq yoq.Hujjatda ta`kidlanishicha:”Haqqa yetishgan,valiylar peshvosi,tozalik va soflik maskani Allohning rahmatiga musharraf bo`lgan hazrat Abdurahimxojaning qizi va hazrat xonning onasi,zamon Xadichasi,davron Fotimasi,iffat panoh Oyposhsha bibi hijriy 1081-yili muborak ramazon oyida (1671-yil yanvar-fevral) marhum mulla Xojaning o`g`li vazirlar panohi,saodat dastgohi va xayrli ishlar sohibi Mulla Xojajon devonni vakil qilib mazkur madrasa hujralari uchun”ushbu vaqf hujjatini tuzadi.

U qadim Buxoro qal`sining tashqarisida,hazrat mag`firat panoh,Abdulazizxon masjidi guzarida joylashgan.Darvozasining tashqarisida hovuz bor.G`arbida hofiz Sharif ibn Muhammad Husayn hovlisi,shimolida hoji Faqiriy ibn mulla Do`stmuhammad hovlisi,sharqi va janubida omma yo`li bor.<sup>16</sup>

Yana boshqa manbadan xuddi shu madrasa haqida ma`lumot kektiramiz.Jo`ybori Kalon madrasasi Jo`ybor shayxlarining avlodi Oyposhsha Bibiojiza tomonidan qurilgan.O`rta asrlarda Buxoroning mashhur madrasalaridan biri bo`lgan.Bundan tashqari Jo`ybor xojalari tomonidan Buxoroda Gavkushon va Jo`yborcha madrasalari ham qurilgan.

Sovet hokimiyati yillarida madrasa xarobaga aylandi.Mustaqillikka erishganimizdan so`ng bu madrasada 1992-yildan boshlab Buxoro shahar Jo`ybori

---

<sup>15</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta`lim tizimi tarixi.-Toshkent:-Akademnashr;-2017.-592 b.

<sup>16</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta`lim tizimi tarixi.-Toshkent:-Akademnashr;-2017.-592 b.

Kalon ayol-qizlar o`rta maxsus islom bilim yurti joylashgan. O`qish muddati 4 yil. Ayni paytda madrasada 71 nafar talaba tahsil oladi.<sup>17</sup>

**Fitrat, Fayzulla** Xo`jaev, Sadriddin Ayniy va boshqalarning ma`lumotlariga qaraganda, Buxoro madrasalarida 1920 yilning oxirigacha chetdan kelgan talabalar o`qishni davom ettirganlar. Amirlikning chekka va yaqin atrofdagi tumanlaridan, qo`shni va boshqa musulmon mamlakatlaridan madrasaga o`qishga kelganlar ham qabul qilingan.<sup>23</sup>

Eng yirik madrasalar amirlikning markaziy Buxoro shahrida hamda Qarshi, G`ijduvon, Shahrisabz, Sherobod shaharlarida, Sharqiy Buxoro bekliklari markazlarida faoliyat ko`rsatgan. Umuman, Buxoro amirligida yuzlab madrasalar mavjud edi. Madrasalar kichik, o`rta va yirik bo`lgan.

Sadriddin Ayniyning qayd etishicha, Buxoro madrasalarining Islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo`lib, ularda ta`lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi so`zlari Misr va Hijozda o`qiganlarning so`zlaridan ko`ra mo``tabarroq hisoblangan.

Buxoro madrasalarining binolari asosan pishiq, g`ishtdan, ikki qavatli yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo`lib, ba`zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Madrasalar ichki va tashqi maydoniga ega bo`lgan. An`anaviy tarzda uning birinchi qavatida darsxonalar, kutubxona, masjid, tahoratchona, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar bo`lgan.

Madrasalar qurish ishi Buxoro amirligida o`ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Asrlar osha bu ish bilan shug`ullanilganligi bois, boy tajriba ham shakllanib bo`lgan edi. Shuning uchun Buxoro madrasalari nafaqat o`quv yurti, balki o`ziga xos me`moriy inshoot ham edi. Buxorodagi Ulug`bek, Mir Arab, Nodir Devonbegi, Ko`kaldosh, Abdullaxon va Abdulazizxon madrasalari bebaho va nodir me`moriy yodgorlik sifatida hozirgi kunda ham mashhurdir.

---

<sup>17</sup> Q.Rajabov, S.Inoyatov. Buxoro tarixi. - Toshkent: - "Tafakkur", - 2016. - 459 b.

<sup>23</sup> Бобожонова Ф. Бухоро мадрасалари маънавият ўчоғ'и. // Бухоро окшоми. 2014 йил, 27 ноябрь, 4-бет.

Faqatgina XIX asrda 60 dan ortiq madrasa qurilgan bo`lib, ularning orasida Amir Nasrulloh madrasasi (1860 yilda), Amir Muzaffar madrasasi (1868 yilda), Amir Olimxon madrasasi hukmdorlar tomonidan barpo etilgan. O`zi qurdirgan madrasa to`g`risida Amir Olimxon shunday deb yozgan: “Buxoro minorasining past tomonida o`z nomimdan Dori-l-ulum-bilim uyi bo`lgan bir madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechak ham o`z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim. Ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazardim”.

Buxoroning oxirgi qozi kalonlaridan biri bo`lgan Sadri Ziyo o`z asarlarida Buxoro shahridagi 204 ta madrasani tadqiq etgan. Uning yozishicha, Buxoroda quyidagi madrasalar ayollar nomi bilan atalgan: Saroy Oyim madrasasi, Zubayda Oyim madrasasi, Mang`it Oyim madrasasi, Bibi Xalifa madrasasi, Modarixon madrasasi, Sharofatbonu madrasasi, Qalmoqjon Oyim madrasasi, Chuchuk Oyimning Sangin madrasasi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro madrasalarining eng mashhurlari sifatida Ko`kaldosh, Miri Arab, Abdullaxon va Zargaron madrasalari ko`rsatiladi. Abdullaxon madrasasi ikki qavatli bo`lib, madrasa ikki qavatli bo`lib, to`rtta fonus bilan yoritilgan. Birinchi va ikkinchi qavatlarda sakkizta fonus bo`lib, har bir fonusda 16 murabba` hujra qurilgan. Peshtoqining balandligi 45 arshin (71,12 sm h 45 q 32 m) keladi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Buxoro amirligidagi madrasalar sonini o`sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadridin Ayniy 200 ta. Sadr Ziyo 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoni esa 400 ta deb ko`rsatadi. Xullas, turli ma`lumotlar umumlashtirilganda Buxoro amirligida 200 dan 400 tagacha madrasa mavjud bo`lgan. Shuningdek, O.Suxarevaning fikricha, birgina Buxoro shahrining o`zida 133 madrasa bo`lgan.

O`zbekiston tarixshunosligida xalq ta`limini o`rganish masalasida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqimizning madaniyatga e`tibor va uni yanada mustahkamlash borasidagi harakatlari tarixni o`rganish bugungi kunda

dolzarb masalalardan biridir. Ma'rifat ziyolilari o'zlarning butun kuch g'ayratlarni milliy ta'limni yuksaltirishga sarflab aholini savodxonligini oshirishga e'tibor berdilar. Ularning ta'lim tizimini isloh qilish yo'lidagi faoliyati, yangi usul maktablarining ochilishi va muammolariga bag'ishlagan Buxoro taraqqiyparvarlarining ta'lim tizimini isloh qilish g'oyalariga alohida e'tibor berganlar.

Buxoro amirligida yangi ta'lim maktablarini tashkil qilishga va yangi usul maktablarining ochilishida I.Gaspirinskiyning roli katta bo'lib, 1893 yilning mayida u Buxoroga kelgan va Amir Abdulahadxon bilan yangi usul maktablari xususida gaplashgan edi. Biroq Buxoroda bunday maktab ochilishi turli sabablar bilan orqaga suriladi.

Buxoroda yangi usuldagi maktab 1900 yilda Mulla Jo'raboy tomonidan o'zi tug'ilgan qishlog'ida ochiladi. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi 1900-1903 yillarga to'g'ri keladi. Aynan shu yillarda tatar o'qituvchilari tomonidan ko'plab maktablar ochilgan<sup>24</sup>. "Ozod Buxoro" gazetasida N.Sobitov Buxoroda birinchi jadid maktabini ochgan degan ma'lumot beriladi. 1903 yilga kelib Buxoroda 6 ta yangi usul maktabi tashkil etilgan edi.

Ayniqsa, Buxoroning jadid maktablarida tovush usulida (usuli savtiyada) o'qitish bilan birga, arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik, tabiiy bilim asoslari o'qitilgan. 1908 yilda Buxoro amirligiga I.Gaspirinskiy maktab islohoti masalalari yuzasidan tashrif buyurdi. Buxorodagi N.Sobitovning tatar maktabini rasman tatar va Buxoroliklarning bolalari uchun maktab sifatida rasmiylashtirmoqchi bo'ladilar va ushbu maktabni I.Gaspirinskiy sharafiga "Ismoiliya" deb nomlashga qaror qilinadi. Ammo I.Gaspirinskiy bunga rozi bo'lmaydi va maktabni marhum Amir Muzaffarxon nomiga bag'ishlab "Muzaffariya" deb atashni taklif etadi. I.Gaspirinskiy Amir Abdulahadxon bilan uchrashib maktab ochish, uning binosi va boshqa tashkiliy ishlar to'g'risida gaplashib oladi. Biroq Buxorolik mutaassib ruhoniylarning ushbu maktabning islom aqidalariga to'g'ri kelmasligi va xalq

---

<sup>24</sup> Холмонова Ф. Бухоро амирлигида миллий таълим ва унинг таҳлили. // Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт: трансформацион жараёнлар. Термиз, 2013. -Б.160.

uchun zararli ekanligi to'g'risidagi "rioyat"larini Buxoro qushbegisiga etkazganlaridan keyin maktabni rasmiylashtirish ishi to'xtab qoladi. N.Sobitovning Buxorolik bolalar ham o'qib turgan tatar maktabi Homid Burnashevning hovlisiga ko'chiriladi va bir yilga yaqin shu taxlitda faoliyat ko'rsatadi. 1908 yilning oktyabr oyida Buxoroning darbozai Sallaxona guzarida Mirzo Abdulvohid uyida fors tilida o'qish olib boriladigan yangi usul maktabi rasman ochiladi va unga Mirzo Abdulvohid muallim etib tayinlanadi.

Buxoro amirligida yangi usul maktablari uchun darslik chop etish maqsadida 1909 yilda Buxoro jadidlari tomonidan "Shirkati Buxoroi Sharif" nomidagi jamiyat tuzadilar. Jamiyatning dastlabki ishi S.Ayniyning "Tarti-ul-Qur'on" nomli darsligini nashr qildirish bo'ldi. 1909 yilda Istanbulda A.Fitrat boshchiligida "Buxoro maorifi" xayriya jamiyati tashkil etilib, uning yordamida Buxorolik bolalar uchun alohida maktab ochildi. 1910 yilda maktabga Buxorodan 30 bola, 1911 yilda 15 bola, 1912 yilda 20 bola, 1913 yilda 16 bola o'qishga yuborildi.

Buxoroning mahalliy aholi orasida yangilikka qarshi kayfiyatda bo'lgan Mulla Qamar, Mulla Xolmurod, Malla Abdurasul Maxsum, G'iyosiddin Sadr, Qozi Kalon Burxoniddin va Nasrullo Qo'shbegi boshchiligidagi konservativ kuchlari yangi usul maktablari ochilishiga keskin qarshilik ko'rsatadilar. Yangi usul maktablari tarafdorlari "usuli jadidchilar", unga qarshi bo'lganlar esa "usuli qadimchilar" deb nom olib, ular o'rtasida keskin kurash borgan. Mutaassib, diniy ulamolar amirga maktub yozib, maktablarni yopishni talab qilishgan: "Olapanoh, boxabar bo'ling, sizning podshohligingizga noxushlik bo'lmasa" deya ogohlantirishgan. Yangi usul maktablari birin-ketin yopilib, o'qituvchilari ta'qibga olinadi. Ammo jadidlar tashkil qilgan yangi usul maktablarining yopilishi amaliy ishni to'xtata olmadi. Chunki Buxoroning ilg'or fikrli kishilari yangi usul maktablarining afzalligini allaqachon anglab yetgan edilar<sup>25</sup>.

Buxoro amirligi ta'lim tizimini tashkil topishda jadidlar harakatining yetakchilaridan biri bo'lgan M.Behbudiyning amirlikdagi yangi usul maktablarini

---

<sup>25</sup> Холмонова Ф.Бухоро амирлигида миллий таълим ва унинг таҳлили. // Ўзбекистонда ижимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт: трансфармацион жараёнлар.Термиз,2013.-Б.161-162.

kuchaytirishga qaratilgan fikrlar bilan to'lib –toshgan “Yangi usul qanday?” nomli va “Buxoroyi sharif” gazetasida e'lon qilingan “Tartib lozimdir” nomli maqolasida ham Buxorodagi maktab va madrasalarda ta'lim berishni takomillashtirishga qaratilgan ilg'or fikrlar edi. Shuningdek, 1912 yilda “Sadoyi Turkiston”da “Hozirgi Buxoroning ahvoli” nomli maqola, 1914 yilda “Oyina”da M.Z.Mirzozodaning dolzarb maqolasi chop etilishi ham ta'lim tizimi islohotiga bag'ishlangan edi. 1911-1912 yillarda Buxoro amirligi hududida 57 ta yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatgan. 1912 yilning 9 oktyabrida Chorjo'yda Otaulla Xo'jaevning musulmon maktabi ochiladi. Bu maktabga Chorjo'y hokimi tomonidan xayriya qilinganligini 1912 yil 28-iyundagi 1243 raqam ostidagi qo'shbegi farmonidan ko'rishimiz mumkin. 1912 yilning oxirlarida Latif Xo'ja tomonidan Gavkushon mahallasida yangi maktab ochiladi. Buxorodagi rasman ikkinchi maktabni Mukomiliddin Burxonov ochgan bo'lib, uning maktabida o'qiydigan o'quvchilar soni 40 nafardan ortiq bo'lgan. Uchinchi maktabni mullo Hamidxo'ja Bozori Nav guzarida o'qituvchi uyida ochadi.

Buxorodagi yangi usul maktablari faoliyatini faollashtirish, uslubiy jihatdan takomillashtirishda Turkiston jadidlarining yordami katta bo'lgan. Xulosa qilib aytganda, Buxoroda boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish an'anaviy maktablarni yangilash emas, balki yangi usul maktablarini tashkil etish orqali amalga oshirilgan. Bu maktablarning ochilishi muhim yangilik bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilishda dastlabki qadamlar edi. Ammo ular ommaviy tus olmadi, ta'qibga uchradi. Lekin ularning ochilishi na faoliyati tufayli bu boradagi islohotlar zaruriyati yanada chuqur anglab yetildi. Buxoro madrasalari ta'limidagi tashkiliy ishlar ushbu hudud xalqlarining o'ziga xos umuminsoniy, milliy – diniy an'anaviy qadriyatlariga, mahalliy ziyolilar tayyorlashni yo'lga qo'yish sohasiga ham chuqur hurmat uyg'otadi. Buxoro madrasalari ilmiy salohiyati va vaqf mulki daromadlari bilan ta'minlanganligi jihatidan ikki yoki uch toifaga ajratilgan. Masalan XX asr boshlarida Buxoro madrasalari oliy, o'rta va ibtidoiy toifaga bo'lingan. Oliy tabaqadagi madrasalar soni 34 ta bo'lib, ularning umumiy vaqf miqdori 2 million 84 ming tanga bo'lib, o'rta toifadagi madrasalarga ega 39 ta bo'lib, jami vaqf

miqdori 961 ming tangaga, ibtidoiy toifaga mansub madrasalar esa 100 tadan oshib, umumiy vaqf miqdori 500 ming tangaga yetdi. Surxon vohasidagi madrasalar esa ikki toifaga kichik va kattaga ajratilgan, kichik madrasalar asosan masjidlar qoshida ochilgan, ularning talabalari soni kam bo'lgan. Katta madrasalar mustaqil binolarga, moddiy ta'minlovchi vaqf mulkiga ega bo'lgan, o'quvchilar soni kamida 15 tadan 100 taga, ba'zan 200 tagacha yetgan. Denovdagi Oliy madrasada 1860 yilda 215 ta talaba Sherobod va Boysun shahridagi o'rta toifadagi madrasalarda 150 ta talaba ta'lim olgan. Ibtidoiy toifadagi madrasalar, masjidlar Denovda 10 ta, Sherobodda 8 ta, Boysunda 9 tani tashkil etgan.

Madrasalar moliyaviy jihatdan vaqf mulklari hisobidan ta'minlangani bois ularning moddiy ma'minoti davlat idoralari tomonidan nazorat qilinmagan. Shu o'rinda vaqf mulki haqida tushuncha berib o'tish zarur, vaqf Markaziy Osiyo o'troq aholisi hayotida qadimdan katta ahamiyatga ega bo'lib, u arabcha so'z bo'lib, "tutib turmoq", "qo'zg'almas" kabi ma'nolarni anglatgan va tekinga beriladigan "hadya", "sadaqa" kabi in'omlardan farqlangan. Musulmon qonunchiligiga oid huquqiy adabiyotlarda "Vaqf-ma'lum bir narsani (mulkni) qandaydir (diniy xayr-ehson yoki madaniy ma'rifiy) maqsadga bag'ishlash" deb bitilgan. Vaqf maxsus hujjat-vaqfnoma vositasida har bir joyning ma'muriy idorasi-qozixonada rasmiylashtirilgan. Vaqfga aylantirilgan mulk vaqf, ya'ni ta'sis etuvchi tomonidan qaytarib olinishi, sovg'a qilinishi, olib-sotilishi, shuningdek, meros qoldirilishi mumkin bo'lmagan. Demak, Olloh yo'liga abadiy bag'ishlangan vaqf mulklari faqat ko'payib miqdori oshib borgan. Markaziy Osiyoga islom dini tarqalgan davralardan e'tiboran yer, karvonsaroy, do'kon, hammom, tegirmon kabi ko'chmas mulklar hamda pul, kitob singari buyumlar vaqfga aylantirish predmeti bo'lib xizmat qilgan. Vaqflarning to'rt turi "vaqfi maxsus" (madrasa, masjid kabilar uchun mo'ljallangan). "Vaqfi g'am", "Vaqfi avlod", "Vaqfi mustadrak" mavjud bo'lgan. Bundan tashqari ular "oq" va "qora" vaqflarga ajratilgan, "oq

vaqf” har qanday soliq va to’lovlardan ozod qilingan, ularga amir tomonidan “inoyatnoma” deb ataluvchi maxsus hujjat berilgan<sup>26</sup>.

1896 yilda Turkiston o’lkasida madrasalarga tegishli vaqf yerlari 462566 tanobni tashkil etgan. Bu dalillar ota-bobolarimiz ilm-ziyo tarqatish yo’lida qay darajada saxovatli bo’lganliklarining yaqqol isbotidir. Madrasalarning mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta’mirlash (shikastu riht) uchun ajratilgan. Qolgan qismining o’ndan biri (tavliyat) mutavalliyga, uning uchdan yoki to’rtidan bir qismi (madras) mudarrislariga bo’lingan. Bundan qolgani mullalar (talabalar), madrasa qoshidagi masjid imomi, so’fisi, sartaroshi va farroshi o’rtasida taqsimlangan. Madrasalarda o’quvni tashkillashtirishi mudarrislarining, xo’jalik ishlarini yuritish mutavallilarning zimmasida bo’lgan. Talabalar mudarrisni ota-onasidan ham ko’proq hurmat qilganlar. Ajdodlarimiz mudarrisning tanbeh-dashnomalarini ota-onaning erkalashidan foydaliroq va yaxshiroqdir, deb bilganlar. Ota-ona farzandining ruhini osmondan yerga tushiradi, o’qituvchi esa uning yerdan osmonga ko’tarilishiga yordam beradi, deb hisoblaganlar. Talabalarining ustozlarga hurmati shu darajada baland bo’lganki, ular faqat mudarrisning o’zigagina emas, avlodlariga ham izzat-ikrom ko’rsatganlar. Nasihatnomalardan birida bu xususda shunday yoziladi. “Kimki menga bitta harfni tanitgan bo’lsa, u mening ustimdan xo’jayinlik qilish huquqini qo’lga kiritadi. Kimki menga “Qur’on”ning bir surasini o’rgatgan bo’lsa, u mening xojamdir. Kimki olamlar va o’z ustozlarini hurmat qilmasa, o’zalshtirgan bilimlaridan hech qanday naf ko’rmaydi”. Talabalar mudarrisga “taqsir”, “afandim” deb murojaat qilganlar, u darsxonaga qirganda yoki o’rnidan turganda, hamma talabalar oyoqqa qalqib, qo’llarini qovushtirib, boshlarini egib, nigohlarini yerga qaratib turganlar. Mudarrisni ko’chada uchratib qolganlarida ham ta’zim bilan salom berganlar, agar otda bo’lsalar, salomlashish uchun, albatta otdan tushganlar. O’z navbatida mudarrislar ham o’quvchilarga ko’proq bilim berish uchun bor kuch-g’ayratlarini sarflaganlar. Talabalarga nisbatan muloyim, samimiy va do’stona munosabatda bo’lganlar, mudarrislarining

---

<sup>26</sup>Шаропов С. Бухоро амирлиги шахарларидиги маънавий мухит.// Ўзбекистонда ижимоий-иктисодий ва маданий ҳаёт: трансфармацион жараёнлар.Термиз,.2013.-Б.176.

o`tkir notiq va badiiy so`z ustasi bo`lishi ham taqozo etilgan. Sababi, qadimdan qaror topgan odatga ko`ra, talabalar o`zlari yoqtirgan mudarrisdan saboq olish huquqiga ega bo`lganlar. Aniqrog`i, o`z madrasalari mudarrislarning bilim berish darajasidan qoniqmagan paytlarda esa boshqa madrasalar mudarrislariga yoki norasmiy mudarrislarga qatnab, o`qiganlar. Norasmiy yoki “Kunjaki mudarris” (forschada “panada turuvchi mudarris”) deganda madrasa tahsilini tugatgan, lekin biror lavozimga ega bo`lmagan, shunga qaramay, aholi o`rtasida bilimdon va o`qimishli kishi sifatida obro`-e`tibor qozongan kishilar tushunilgan. Ular mehnatlari evaziga o`quvchilardan aniq miqdorda belgilangan haq olmaganlar, faqat shogirdlari tomonidan qilingan tuhfa yoki sovg`alar bilan qanoatlanganlar. Har bir madrasada doimiy o`quvchi va madrasa hujralarida yashash huquqiga ega mullalar ham erkin qatnovchi talabalar bo`lgan. Mudarrisga notanish va uzoqdan kelgan talabalar o`qishga qabul qilinayotganda, o`qish va yozishga bo`lgan qobiliyati sinab ko`rilgan. Bu demak, madrasaga butunlay savodsiz kishilar emas, balki ma`lum bilim zahirasiga ega toliblar qabul qilinganlar.

Madrasalar xonlik va amirlikdagi davlat idoralari, boshqaruv mahkamalari, qoziyot, diniy muassasalar uchun turli xodimlar, maktab – madrasalar uchun muallim – mudarislar, ijtimoiy – siyosiy tuzum va uning mafkurasiga xizmat qiluvchi mutaxassislarni tayyorlab bergan. Talabalar imtixon yoki tanlov asosida o`qishga qabul qilingan. Mudarrislar imtihon qilingach xon yoki beklar tomonidan tayinlangan. Mudarrislar darsdan bo`sh paytlarida qozilik, muftilik kabi davlat ishlari bilan shug`ullanib turishgan. Bitiruvchilar bilimiga yoki imtixon natijalariga qarab, mudarris, masjid imomi yoki qozi, muftiy, a`lam, mirzo sifatida davlat mahkamalarida yuborilgan.<sup>27</sup>

Buxoro madrasalari haqida xalq orasida bir necha afsonalar ham to`qilgan. Xususan, Abdulazizxon madrasasi, Gavkushon madrasasi, Ko`kaldosh madrasasi haqidagi rivoyatlar keng tarqalgan.<sup>28</sup> Abdulazizxon madrasasi haqidagi rivoyatni misol tariqasida keltiramiz.

---

<sup>27</sup> Аҳмад Муҳаммад, Мубашшир Аҳмад. Ислоҳ ҳазораси. Т., Мовароуннахр, 2014. –Б.92.

<sup>28</sup> Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. Т., 2002-Б.43-44, 54-55, 64.

Podshoh Abdulazizxon oltinchi marta Makkayu Madinaga hajga jo`nabdi. Safar chog`ida bir kechasi uning tushiga nuroniy bir chol kiribdi. Bu nuroniy chol Abdulazizxonga qarab: «Sen safardan qaytganingdan keyin o`z vataningda shunday bir me`moriy obida qurdirginki, bu obida yurtingdagi boshqa obidalarga sira ham o`xshamasin. Qurdiradigan me`moriy obidangda boqiy va foniy dunyo o`z ifodasini topsin. Asrlar osha xalq undan bahramand bo`lib, seni yodga olsin», - debdi.

Abdulazizxon safardan qaytganidan keyin Buxorodagi barcha ko`zga ko`ringan ustalarni chaqirib, me`moriy obida qurishni va bu obidaning devorlaridagi bezaklar bir-biridan farq qilishi kerakligini, shu bilan birgalikda devorlardan birida o`zining siymosi ham aks ettirilishini aytibdi va:

-Aytgan shartlarim o`z vaqtida bajarilmasa, boshlaringizni tanangizdan judo qilaman, - debdi.

Lekin o`sha davrda odam rasmini chizish ta`qiqlangan ekan. Shunday bo`lishiga qaramasdan, usta-me`morlar bor hunarlarini ishga solib, Abdulazizxon aytgan madrasani qurishga kirishibdilar. Bu me`moriy obida asta-sekinlik bilan erdan qad ko`tara boshlabdi. Oradan bir necha vaqt o`tgandan so`ng me`moriy obidaning ma`lum bir qismi qurib bitkazilibdi.

Abdulazizxon o`zi qurdirayotgan obidaning bir qismi qad rostlaganini eshitib, bu joyga tashrif buyuribdi. Ustalar madrasani Abdulazizxon «aytganidan ham ziyodroq qilib qurishgan ekan. Abdulazizxon madrasaga kirib, ustalarning ishini ko`zdan kechirib, o`ng tomondagi xonaqoh tarafga qarab yuribdi. U xonaqoh devorlaridagi suvratlarni diqqat bilan tomosha qilibdi. Xonaqohning janubiy devoriga ilon va chayonlar surati ishlangan bo`lib, bu foniy dunyoning mashaqqatlari haqida ma`lumot berarkan. Shimoliy qismida tasvirlangan chizgilar esa bu foniy dunyoning azob-uqubatlariga bardosh beradigan odamlarga boqiy dunyoda jannat eshiklari ochiqligidan dalolat berarkan. Xonaqohning g`arbiy devoriga ishlangan ikkita ayiq suvrati mansab va boylik Olloh tomonidan odamlarni sinab ko`rish uchun berilishini anglatga, devorning sharqiy qismida boylik va mansabga berilib, xudoni unutmaslik haqidagi oyatlar bitilgan ekan.

Abdulazizxon ustalarning mahoratini ko`rib, bir tomondan quvonibdi, ikkinchi tomondan esa o`zining suvrati ishlanmaganligidan jahli chiqibdi va me'morga qarab:

-Nega mening suvratimni chizmading, endi boshingni tanangdan judo qilaman! - deb baqiribdi. Shunda me'mor Abdulazizxonni xonaqoh eshigidan tashqariga olib chiqibdi va devorning g`arbiy qismida chizilgan mehrob ichidagi bir dasta gul tasviriga sin solib qarashni so`rabdi. Abdulazizxon qarasaki, bir dasta gulda uning siymosi gavdalanib turgan emish. Abdulazizxon yana bir marotaba ustaning mahoratiga qoyil qolibdi.

Shundan so`ng Abdulazizxon toj-u taxtdan butunlay voz kechib, toat ibodatga berilibdi. U podsholikdan voz kechgandan keyin madrasaning qolgan qismi bitkazilmay qolib ketibdi. Lekin shunday bo`lsa ham bu madrasa Buxoroning ko`rkiga-ko`rk qo`shib, hozir ham qad rostlab turibdi. Bu madrasani tomosha qilishga kelgan har bir kishi bu dunyodagi boqiy hayotning mohiyatini turfa chizgilarda ifodalagan usta me'morlarning betakror mahoratiga tan beradi.<sup>29</sup>

---

<sup>29</sup> Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. Т., 2002-Б.43-44.

## **II - BOB. MADARASALAR FAOLIYATI VA ULARNING MUAMMOLARI**

### **2.1.Madrasalarda ta'lim tizimi**

Madrasalarda ta'lim tizimini dastlab IX-XVI asrlar oralig'idan boshlab o'rganamiz.Madrasa-arab tilida "darasa"(o'rganmoq),musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti.Ulamolar va maktabdorlar,Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida davlat organlari xizmatchilarini ham tayyorlaydi.VII-VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharxlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan.IX-XIII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda,jumlada O'rta Osiyoda tarqaldi.Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan.Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytib o'tilgan 937-yilgi yong'inda zarar ko'rgan "Forjak"madrasasi O'rta Osiyodagi dastlabki madrasalardandir.Madrasalarning xon madrasalari,eshon madrasalari,xususiy madrasalar kabi turlari bo'lgan.<sup>18</sup>

Bu ma'lumot juda ham kam bugungi kun o'quvchisi uchun.Bu borada hali qilinadigan ishlar juda ko'p.

Madrasada boshqaruvning madrasalardan tashqi qismi quyidagicha bo'lgan.Tizimning bosh bo'g'ini,boshqaruv tepasida xon yoki amir turgan.Yirik vaqf mulklari hujjatlari ko'pincha ularning muhrlari bilan tasdiqlangan.Oquv dargohlarining davlat tomonidan nazorat qilinishi shu nuqtadan boshlanadi.Oliy hukmdor muhri urilmagan vaqf hujjatlari ham uchraydi.

Ikkinchi oliy bo'g'in-qozi nazorati edi.Buxoro vaqf hujjatlari qozi ul-quzzot tomonidan rasmiylashtirilgan va unga albatta qozining muhri qo'yilgan.Ba'zi hujjatlarni rasmiylashtirishda mufti,sadr va boshqa guvohlar ham qatnashgan.Ular faqat rasmiylashtirish ishlarida ishtirok etgan xolos.

Sadr vazifasi,Buxoro shahri va uning atrofida bir farsax masofada joylashgan o'quv dargohlarining iqtisodiy faoliyatidagi muammolarni sadr hal qilgan.Zarur holatlarda hujjat nizomida ko'rsatilgan moliyaviy ishlar bilan bog'liq masalalarni taftish qilgan.Xizmatlari uchun ayrim madrasalardan "sadrna"haqi olgan.Ba'zi vaqf hujjatlariga sadr haqi olinishini ta'qiqlovchi bandlar kiritilgan.

---

<sup>18</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta'lim tizimi tarixi.-Toshkent:Akademnashr;-2017.-592 b.

Madrasalar ichki boshqaruvi quyidagicha bo`lgan. Madrasalar ijtimoiy tuzilishi o`quv jarayoni va maishiy xizmat bo`limidan iborat bo`lgan.

Oquv jarayoni vazifadorlari: Mutavalli-vaqf hujjati nizomida madrasa faoliyati aniq belgilab qo`yilgan. O`qish jarayonini mutavalli boshqarib boradi. U tasarrufidagi o`quv dargohi va ta`lim sohasiga aloqador hokimiyat amaldorlari o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga mas`ul edi. Madrasa mutavalli hujjatda belgilangan nizom asosida tayinlangan va uning mehnat haqi aniq belgilab qo`yilgan. Xoja Muhammad Porso madrasasida voqifning o`zi vaqf mulkiga mutavalli bo`lishi, undan keyin bu vazifani avlodlari davom ettirishi va hosildan ushr (1/10) olishi ko`rsatilgan.

Mudarris. Mutavallidan keyingi vazifador edi. Uning ish kuni va mehnat haqi, o`qitadigan fanlar yo`nalishi nizomda “shar`iy ilmlar” iborasi bilan belgilangan. Madrasa hujralarida mudarrisga joy berish holatlari ham kuzatilgan.

Talaba. Ilmu ma`rifat sohasining eng ko`p vakillari edi. Madrasalar xuddi shu toifaga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun tashkil qilinardi. Xoja Muhammad Porso madrasasi talabalari vaqf mablag`idan 3 hissa olgan. Talabalar adno (quyi), avsat (o`rta), va a`lo (yuqori) toifalarga bo`lingan edi. Adno toifasiga kirgan talaba 1 hissa avsatga kirgan talaba 1,5 hissa, a`loga kirgan talaba esa 2,5 hissa haq olgan. Talaba noshar`iy ishlar bilan mashg`ul bo`lsa, axloqida nuxsonlar sezilsa, uzrli sababsiz ikki oy-u o`n kun o`qishni tark etsa, o`quv faoliyatidan chetlatilgan.

Maishiy xizmat vazifadorlari quyidagilar hisoblalanadi.

Madrasa masjidi imomi. Belgilangan tartibda madrasadagi ibodat talablarini ado etgan va xizmatiga nizomda ko`rsatilgan tartib bo`yicha haq olgan.

Muazzin. Azon aytgan va xizmatiga haq olgan.

Sartarosh. Xoja Muhammad Porso madrasasida haftasiga bir marta kelib vazifasini bajargan.

Farrosh. Tozalikka mas`ul edi. Tahoratchona xizmatlari ham uning zimmasiga yuklangan.<sup>19</sup>

---

<sup>19</sup> A. Jumanazar. Buxoro ta`lim tizimi tarixi. - Toshkent: - Akademiya nashri; - 2017. - 592 b.

XVI-XIX asrlarda madrasalarda ta'lim boshqaruv tizimi oldingi davrdagiday bo'lgan. Faqat ayrim o'zgarishlar bo'lgan va oldingi tizim yanada takomillashgan. Boshqaruvning madrasadan tashqari qismida o'zgarishlar deyarli bo'lmagan. Madrasaning ichki tizimida o'zgarishlar bo'lgan.

Tizimning bosh bo'g'ini oldingiday xon yoki amir bo'lgan. Ikkinchi oliy bo'g'in bu qozi nazorati bo'lgan. Sadrning vazifasi ham oldingiday.

Yangi mansab tashkil etilgan, bular biri Sudur-Buxoro shahri boshqaruvidan tashqaridagi madrasalar faoliyati uchun sadrlar singari vazifalarni bajarar edi.

Olimlar yasovuli (Yasovuli ulamo). Yasavul dastlab chingiziylar davrida "yasa" ijrosini nazorat qilgan. O'rta asrlar oxirlarida xon saroyidagi maxsus topshiriqlarni bajaruvchi kichik amaldor edi. Bu davrga kelin Olimlar yasovuli boshqaruvning yuqori bo'g'inlariga rasmiy murojaat xati yozib, mamlakatda o'quv mavsumining boshlanishi va yakunlanayotgan, madrasalarda mudarrislarining boshqa mansabga o'tishi, bo'sh qolgan dars o'rinlariga o'qituvchilarni tayinlash ishlaridan qozi va oliy hukmdorni xabardor qilib turgan.

Madrasada hozirgi kundagi oliy ta'limga o'xshab mudarrislarining ham toifalari mavjud edi. Bularni quyida bayon etamiz.

Oxund. Ta'lim tizimida eng yuqori oltinchi darajali oliy toifadagi mudarris bo'lgan. Bu unvon ta'lim sohasida XVI asrda paydo bo'lgan. "Oxund" atamasi Mirza Badi devonning davlat ma'muriy boshqaruvini tashkil qilgan lavozimlarga bag'ishlangan asarida uchramaydi. Buxoro madrasalariga oid qimmatli ma'lumot yozib qoldirgan Abu Abdurahmon Abdulloh esa: "Buxoroda faqat birgina oxund bo'lgan", -deb yozadi. Demak, oxund o'rni va unvoni faqat ta'lim tizimi tarkibida bo'lgan xolos.

A'lam. Beshinchi darajadagi oliy toifa mudarris edi. Ta'lim tizimida oxunddan keyingi o'rinda turgan va uning o'rinbosari sifatida qaralgan. Bizning davrimizda uning tarixiga qisqagina ta'rif berilgan: "A'lam (arab tilida "bilag'on", "eng olim") - diniy-huquqiy masalalar yuzasidan fikr beruvchi diniy amaldor. Odatda, muftilar tuzgan fatvo yoki rivoyatga a'lam muhr bosgach, u kuchga kirgan va qozilar o'sha hujjat asosida hukm chiqargan. Abu Abdurahmon

Abdulloh o`n bir muftidan bittasi a`lam unvoniga yetishgach Gavkushon madrasasida mudarrislik qilishi haqida ma`lumot qoldirgan.

Mufti.To`rtinchi darajadagi oliy toifali mudarris bo`lgan.Muftilar ham davlat boshqaruvida to`g`ridan-to`g`ri ishtirok etishgan.Buxoroda muftilar banoras to`nli mudarrislar orasidan saralanib olingan.

Banoras to`nli mudarrislar.Bular uchinchi toifadagi oliy o`quv dargohlari o`qituvchilari bo`lishgan.Amir yoki xon har doim sarpo ehson qilganida bu mudarrislariga banoras to`n in`om etgan.

Mudarris.Bular ikkinchi toifaga kiruvchi oliy o`quv dargohlarida dars beruvchi barcha o`qituvchilarning umumiy nomi bo`lgan.Mudarrislar darajasi banoras to`nli o`qituvchilardan bir pog`ona pastda turardi.Zarur paytlarda mudarrislar orasidan qobiliyatlari viloyatlarga mas`ul lavozimlarga yuborilgan.

Quyi toifa mudarrislar.Bu toifa mudarrislar birinchi darajali quyi toifa mudarrislar bo`lib,2-darajali oliy va 1-darajali quyi madrasalarni bitkazgan talabalardan olingan.Ularning qatoriga hidoyaxon,sahihxon,tahzibxon,hoshiyaxon,salovatxon,maqsuraxon,qorilar ham qo`shilar edi.<sup>20</sup>

Yuqoridagi lavozimlardan a`lam va mufti lavozimlari asosan davlat mansablari bo`lishgan.Ular ko`p vaqtlarini davlat ishlari bilan o`tkazishgan.Boshqa toifadagi mudarrislarining asosiy vaqtlari madrasada o`tgan.

Madrasalar toifalari haqida ham ma`lumot berib o`tishni joiz deb bildik.Madrasalar besh toifaga ajratilgan.Madrasalar talabalarning soniga qarab,madrasaning kattaligiga qarab,vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga qarab,qaysi darajadagi mudarrislarining dars berishiga qarab toifalarga ajratilgan.Bu toifalarni Buxoro madrasalari misolida ko`rib o`tamiz.

Beshinchi darajali oliy toifa.Bu toifaga ikkita madrasa mansub bo`lgan.

Ko`kaldosh madrasasi-Buxoro va Movarounahrda eng yuqori o`rinda turgan.Unda oxund dars bergan.Xiva ,Qo`qon xonliklari va islom olamining

---

<sup>20</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta`lim tizimi tarixi.-Toshkent:-Akademnash;-2017.-592 b.

boshqa mamlakatlardan ham olimlar shu madrasaga intilishgan. Manbalarda bu dargohda ko'pincha o'z davrining yuksak maqomdagi ilm ahli to'planib majlislar qilib turishganiga oid ma'lumotlar uchraydi. Talabalarning ilm darajasi boshqalariga qaraganda yuqoriroq bo'lgan.

Gavkushon madrasasi-unda oxundning o'rinbosari a'lam dars o'tgan. U ham Buxoroning eng mashhur oliy o'quv yurtlaridan edi. Bu dargoh mudarrisi muftilar darajasidan yuqoriroq turgan.

To'rtinchi darajali oliy toifa. Ushbu toifadagi o'quv dargohini muftilardan iborat mudarrislar jamoasi tashkil qilgan. Bularga Tursunjon, Xoja Davlat, Xoja Nihol, Mir Arab, Nodir devonbegi, Abdullaxon, Modarixon, Mavlona Miskin, Olimjon madrasalari kirgan.

Uchinchi darajali oliy toifa. Mazkur toifadagi madrasalarda banoras to'ntinchi mudarrislar dars o'tishgan. Bu mavzuga oid bitta rasmiy hujjat aniqlandi. Bu toifaga qirqdan ortiq madrasalar kirgan. Unga Boloyi hovuz, Mirzo Ulug'bek, Kalabod va boshqa madrasalar kirgan.

Ikkinchi toifali oliy toifa. Bu toifadagi madrasalarda ko'pincha banoras to'ntinchi mudarrislardan quyi darajada bo'lgan mudarrislar dars berishgan. Lekin bu madrasalar orasida banoras to'ntinchi mudarrislar ham dars berish holatlari ham uchrayib turgan. Bu turdagi madrasalar uchinchi toifadagi madrasalardan farqi juda oz edi.

Birinchi darajali quyi toifa. Mazkur toifadagi o'quv dargohlari madrasalarning eng quyi tabaqasidir. Bu toifadagi madrasalarda moddiy ta'minot keragicha yetarli bo'lmagan. Ularda maoshi kamligi sababli ilmiy darajasi yuqori bo'lmagan va endigina madrasani tugatgan talaba, salovatxon, hidoyaxon, tahzibxon, sahihxon kabi mutaxassislik faoliyatini olib borgan.

An'anaviy ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lgan madrasaga boshlang'ich ta'lim maskani - maktabni o'qib tugatgan, 10 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan savodxon shaxslar o'qishga qabul qilingan. Shariat qoidasiga muvofiq, birorta mudarrisning har qanday yoshda o'qish uchun murojaat qilgan kishiga rad

javobi berishga huquqi bo`lmagan.<sup>30</sup> Madrasada dars jarayonlari, odatda har yili oktyabr oyida boshlanib, aprel oyigacha davom etgan. An'anaviy qoidaga ko`ra madrasada hafta kunlari 2 ga bo`lingan: tahsil kunlari va ta'til kunlari. Tahsil kunlari - shanba, yakshanba, dushanba va seshanba. Ta'til kunlari (o`tilganlarni takrorlash va dam olish) - chorshanba, payshanba va juma. Masalan, Mehtar Shofi'i ibn Xo`ja Latif va Fathulla qushbegi ibn amir Nasrulloh nomidagi madrasalarning vaqf hujjatida haftada 4 kun dars bo`lishi yozib qo`yilgan. Darsning boshlanishi quyosh chiqishi bilan belgilangan (bomdod namozidan keyin).<sup>31</sup>

Talabalar o`quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o`qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlarga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasaning katta-kichikligiga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan.

Talabalar jamoasi-guruhni boshqargan talaba qoriboshi deb atalgan. Jamoa qorilari odatda mullazodalardan tayinlangan. Uning boshchiligida jamoa a'zolari qo'llarini qovushtirib, ta'zim va tavoze bilan salom berib, navbat bilan mudarris huzuriga kirib borganlar. Madrasaning birinchi qavatida joylashgan darsxonaning to`rida domla-mudarris o`tirgan, talabalar (mullabachchalar) esa gilam yoki qig`iz (namat) tushalgan yerga chordona qurib o`tirganlar.

Dars jarayoni quyidagicha olib borilgan: talabalar joylashib o`tirgach, o`qilayotgan kitobning avvalgi darsda o`tilgan joyini ochganlar va shu taxlitda yangi dars boshlangan. Jamoa sardori-qoriboshi o`rganilayotgan kitobning navbatdagi qismini ovoz chiqarib o`qigan. O`qib borishi barobarida mudarris uning talaffuzini ham to`g`rilab borgan. Talabalarga noma'lum bo`lgan arab so`zlarining mazmuni va o`qilgan kitob parchasining umumiy mohiyati misollar yordamida mudarris tomonidan tushuntirib berilgan. Ba'zan yangi mavzuni tushuntirishda mudarris munozara usulidan foydalangan. Birinchi dars shu zaylda nihoyasiga

---

<sup>30</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари). Т., Адиб. 2014. –Б.54.

<sup>31</sup> Айний С. Эсдаликлар // Асарлар. — Тошкент: Бадий адабиёт, 1965. V жидд. - Б. 169.

yetib, talabalar ikkinchi dars sabog`ini olish uchun navbatdagi mudarris huzuriga kirgan.

Bu holatni 1892-1893 o`quv yilida Olimjon madrasasida tahsil olgan Sadriddin Ayniy ham quyidagicha tavsiflaydi: “Biz oltmish nafar shogird shu boloxonada maddoh ma`rakasiga to`plangan odamlardek ketma-ket shoshilishib o`tirardik. Jamoa qorisi o`rtada o`tirib, o`z kitobidan shu kungi darsga taalluqli joyni arab tilida o`qir, domulla esa, avval tarjima qilib, so`ngra sharhlab, bu darsni.. bizlarga tushuntirardi. Shogirdlarning aksariyati tushunib-tushunmay, ikki-uch kishidan bo`lib, baqirib muzokaraga tushib ketardilar. Ammo Buxorocho dars berish usuliga mohir domullamiz o`zining yo`g`on, baland ovozi, chaqnab turgan ta`sirli ko`z qarashi bilan g`avg`oni bosib, har xil izoh va sharhlar bilan muallifning maqsadini qobiliyatli bolalarga tushuntirar edi. Shu bilan bir soat vaqt o`tib, bir kunlik darsimiz tugardi”.<sup>32</sup>

Madrasalarda darslar, asosan, faol munozara tarzida o`tgan. Masalan, Ikromcha domla darsni Madrasa talabalari oldiga muhokama uchun masala qo`yishdan boshlagan. U masalaning mohiyatini tushuntirib bergan. Talabalar fikrini bir maqsadga yo`naltirib, ular obdon tortishib bo`lganidan keyin, e`tiborini o`ziga qaratgan. So`ngra ishonarli misollar, aniq dalillar bilan o`rganilayotgan matn mazmunini tojik tilida tushuntirib bergan va muallif fikriga munosabatini bildirgan.<sup>33</sup>

Madrasalarda o`qitiladigan ilmlar quyidagi guruhlariga bo`linadi:

1.Arab tili grammatikasi: sarfi (morfologiya), naqvi (sintaksis), arab tarixi, Qur'onni o`qish ilmi va ilmiy munozaralar madaniyati.

2.Ilohiyot va qonunshunoslik: Qur'on tafsiri, hadis, fiqh, diniy aqidalar, meros taqsimoti haqida ta`limot (Faroiz), qonunshunoslik asoslari.

3.Falsafa, mantiq, riyoziyot, jug`rofiya, astronomiya, tibbiyot, kimyo va tabiiy fanlar.

---

<sup>32</sup> Айний С. Эсдаликлар // Асарлар. — Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. VI том. - Б. 54.

<sup>33</sup> Айний С. Бухара (Воспоминания). - Душанбе: Ирфон, 1981. - С. 40-41.

Madrasada ta'lim jarayoni arab tilini o'rganishdan boshlangan. Eng avval umumiy kurs sifatida "Avvali ilm" o'qitilgan. ("Avvali ilm" kitobi islom dinining asoslarini o'rgatuvchi savol-javob tarzida tuzilgan fors tilidagi o'quv qo'llanmasi bo'lib, unda "Avvali ilm nimadir?" degan savolga Allohni tanish, Payg'ambarni tan olish, Shaytonni anglash degan javob berilgan). "Avvali ilm" kitobi talabalarga bir necha kunlarda yodlattirilgan. "Avvali ilm"dan so'ng arab tili grammatikasi, morfologiyasi bo'yicha fors tilida yozilgan "Bidon" o'qitilgan. Ikkinchi yili arab tili morfologiyasi bo'yicha arab tilida yozilgan "Zanjoniyy", fors tilida "Muizziy" kitoblari o'qitilgan. Bu boshlang'ich maktablardagi arab tili darslarini takrorlash edi. Uchinchi yildan boshlab arab tili grammatikasi chuqur o'zlashtirila boshlangan. Shu yili "Qofiya" o'tilgan. "Qofiya" arab tilida yozilgan arab tili grammatikasidir. Unda arab tilidagi fe'l, ot va harflar haqida ma'lumot berilgan. To'rtinchi yildan yettinchi yilga qadar "Sharxd Jomiy" (Abdurahman Jomiy tomonidan Qofiyaga yozilgan sharh)dan "Qofiya"ning "Al-marfu'ot", "Al-majrurot", "Al-mansubot", "Al-Mabniyyot" qismlari o'rgatilgan. Bularning bari arab tilidagi ot, fe'l, so'z, birikmalar va kelishiklarni o'qitishga bag'ishlangan. Sakkizinchi yilda yuqoridagi kitobning "Hamd" (yuqoridagi kitoblarning boshlanishi, ya'ni Allohga hamdu sanolar aytish qismi) va "Bahsi ism" (Hamddan keyingi qismlarida Kufa va Basra olimlarining ba'zi qoidalar bo'yicha tortishgan bahslari) vdeamlari o'qilgan. To'qqizinchi yilga kelib "Qutbiy" hoshiyasidan (arab tilida yozilgan morfologiya) "Va rottabtuhu 'ala muqaddima" (muqaddimada tartib berdim, so'zning qayerda keltirilganligi bu fikr muqaddimasida aytilgan) o'rganilgan. Uninchi yili - "Hamdi Aqoyid"<sup>34</sup> kitobida oyatlar, hadislar misolida e'tiqod masalalari o'rganilgan (Allohni tan olish, oxiratga ishonch, g'oyib olami va h.k). "Hamdi Aqoyid" - "Aqoid" kitobining hamdu sanolar qismi sanalgan. Keyingi yillarda "Aqoyid"ning "Ba'd" (keyin, asosiy maqsadga o'tishdan oldingi so'z), "Samava" (osmonlar), "Haqoyiq ul-aysha" (narsalarning haqiqati, Alloh yaratgan narsalarning hammasini hikmati va haqiqati bor) bo'limlari, bosqich, sharhlar asosida o'rganilgan. O'n to'rt, o'n beshinchi yillarda "Tahzib" (e'tiqod

---

<sup>34</sup> Имоми Таҳовий. Ақоид. - Тошкент: Мовароуннахр, 1992. - Б.3.

haqidagi) kitobining “Hamd” (rizq berilgan uchun, bizga shu ilmni oson qilganing uchun hamdu sanolar boʻlsin) va “Ta’rifi ilm” ilmni ta’riflash, asosan muqadimasida keltiriladi) qismlari oʻrgatilgan. Oʻn oltinchi va oʻn ettinchi yillarda “Hikmat ul-ayn” (arab tilida yozilgan mantiq) kitobi va uning sharhlari oʻrgatilgan.<sup>35</sup> Oʻn sakkizinchi va oʻn toʻqqizinchi yillar yimi kalomga oid qisman ilohiyot, qisman mantiqqa oid “Mullo Jalol”, Hadisi sharif kitoblari oʻqilib, sharh qilingan. Qurʼon tafsirlarini oʻzlashtirilishi bilan, Bedilxonlikni tugashi bilan madrasadagi oʻquv kursi yakunlangan. Qurʼon tafsiri boʻlgan Yusuf Bayzaviyning fors tilida yozilgan “Tafsiri Bayzaviy” degan asaridan ikki sura oʻqitilib sharh qilingan.

Madrasalarda arab tilini oʻqitishga. ancha koʻp vaqt ajratilgan, buning sababi ushbu tilning murakkabligi va oʻziga xosligi bilan bogʻliq boʻlgan.

Madrasa talabalari tomonidan arab tili grammatikasi oʻzlashtirib boʻlingach, oʻquv kursi ikki boʻlimga: umum taʼlim kursi - mushkilot va fiqh kursi - masala boʻlimlariga boʻlingan. Bu boʻlimlardan qaysi birini oʻqib chiqish Madrasa talabasining xohish-istaklariga qarab aniqlangan. Ular istasalar har ikki boʻlimi yoki alohida mushkilot yo masala kursidan birini oʻqib tamomlashi mumkin boʻlgan.

Umumtaʼlim kursi boʻyicha tahsil olishni tanlagan talabalar asosan Shamsiya (mantiq), Hoshiya (yuqoridagi kitobga qoʻshimcha, sharh va izohlar), Aqoid (Kalom ilmi yoki aqidalar haqida taʼlimot-islom ilohiyoti), Tazhib (dialektika), Hikmat ul-ayn (metafizika va fizika darsligi), Mulla Jalol (qisman mantiq, qisman ilohiyot), Tavzih (Qurʼon, hadis, ijmo va qiyos haqida umumiy tushunchalar beruvchi fan), Mishkoti Sharif (hadislardan saboq beruvchi fan), Tafsiri Qozi Bayzaviy kabi predmetlarni oʻzlashtirish bilan cheklangan.

Madrasalarda masala kursi oʻtilayotganda esa bularga qoʻshimcha ravishda Fikda Kaydoniy (shartli va shartsiz majburiy amallar, maʼqullanuvchi va man etiluvchi hatti-harakatlar haqidagi taʼlimot), Muxtasar ul-vxoya (din va fuqarolik huquqining qisqacha bayoni), Sharh ul-vikoya (Vikoyaning sharhi), Hidoya-i-

---

<sup>35</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. — Тошкент: Маънавият, 2000. - Б.239.

sharif (Muhtasar ul-viqoyada qisqacha ko`rib chiqilgan masalalar mukammal berilgan kitob) kabi kitoblar o`qitilgan.

Madrasada ayrim fanlarni chuqur o`zlashtirishni istagan talaba alohida qo`shimcha dars olib, mustaqil shug`ullangan. Yaxshi, qobiliyatli talabalarga bu davrda kitob o`qish tavsiya etilgan. Bunday talabalar Qofiyaning sharhlarini o`qishgan. Shundan keyin esa ular Shamsiya, Sharhi Hirsia va Mir-Said-Sharif darsliklari bo`yicha arab tili mantiqini o`rganishgan. Masalan, arab grammatikasini chuqur o`zlashtirmoqchi bo`lsa, 1896 yilda Mavlaviy Sharif tomonidan yozilgan “Nahv” kitobi (gapda so`zlarning o`zaro munosabatga kirishishi usullari so`z birikmalari va ularning turlari, gap va uning tuzilishi), “Nahv-i mir” deb nomlangan risola va fors tilida yozilgan morfologik kitob - “Sarfi Mir va takmila va tabsira”(so`z turkumlari, ot, sifat, son, olmosh va fe'llarning vaznlari to`g`risida) nomli kitoblarni mustaqil o`zlashtirganlar.<sup>37</sup>

Buxoro madrasalarida tahsil olgan talabalar ko`pincha Kunjaki domladan dars olishgan. Kunjaki domlaning asosiy vazifasi madrasada belgilangan muayyan kurs yoki kitobni o`rganishda qo`shimcha shug`ullantirishdan iborat edi. Boshqacha aytganda, hozirgi zamon repetitor domlasiga o`xshab ketardi. Masalan, bir talaba kunjaki domla oldida kunda bir dars, ya`ni “Qofiya”, “Shamsiya” (mantiq) yoki “Matni aqoid”dan qo`shimcha dars o`qir edi. Aynan shu talaba ushbu domla oldida yoki boshqa biror kunjaki domla oldida darsxonada o`qiydigan (ya`ni madrasada belgilangan tartibdagi) darsni ham o`qirdi. Shundan keyin mazkur talaba darsxonada o`qishi lozim bo`lgan darsni darsxona domlasi (mudarris) bo`lgan katta domla oldida takror o`qirdi. Ba`zan shunday hollar ham bo`lib turardiki, ayrim sabablarga ko`ra (masalan, darsni yaxshiroq o`zlashtirish uchun yoki domla bilak yaqinroq aloqada bo`lish uchun) bir talaba biror darsxonaga borib darsni uchinchi bor o`qishi ham mumkin edi. Shunday qilib, talaba kundalik darsni ikki, uch, ba`zan to`rt joyda o`qirdi.

Qo`shimcha darslarni domla iqtidorli talabalarga o`z uyida yoki biron madrasaning biror hujrasada o`tishi mumkin edi. Masalan, mudarris Mulla

---

<sup>37</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари).Т.,Адиб. 2014. –Б.59.

Abdusalomning taklifiga binoan, Sadridin Ayniy undan "Muxtasari vxoya"-musulmon huquqshunosligini o`rgatgan. Ammo Mulla Abdusalom kabi fanni puxta bilgan, uni aniq ravshan va tushunarli qilib talabalarga yetkazib beradigan domlalar bilan bir qatorida o`zi to`g`risida soxta shuhrat orttirgan domlalar ham bo`lgan.

D.N.Logofetning ma'lumotiga qaraganda, o`rta toifadagi madrasalarda Madrasa talabalari 3-10 yil davomida arab tili, musulmon huquqi, fors tili, fors adabiyoti, shuningdek, mushkulot (falsafa)ni o`rganganlar. Bundan tashqari, riyoziyot (arifmetika) butun sonlar va to`rt amal doirasida, ilm-ul faroiz, handasa (geometriya, meros huquqi bilan bog`liq yerni o`lchash, hisoblash masalalarini yechishga qaratilgan fan), islom tarixi (turli kitoblardan qisqartmalar tariqasida), jug`rofiya, nujum fanlari o`qitilgan. Oliy madrasalarda ilohiyot, falsafa va huquq fanlari kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tarzda o`rganilgan. Bu o`quv yurtida o`qish kamida 3-4 yil davom etgan va uni bitirganlar oliy darajadagi mutaxassis hisoblangan.

Demak, tarixiy manbalarning guvohlik berishiga qaraganda O`rta Osiyoda, jumladan, Buxoro amirligida mavjud bo`lgan madrasalarda faqat diniy asosdagi fanlar o`qitilmagan. Bunday yo`nalishdagi fanlar Madrasa ta`lim tizimida katta o`rin egallagan, ba`zilarida esa uning asosini tashkil etgan. Masalan, yirik madrasalardan bo`lgan Nodir Devonbegi madrasasida mudarrislik qilgan muftiy asosan fiqh kabi shar`iy fanlardan dars o`tgan. Ayni paytda madrasalarda diniy bilimlardan tashqari mantiq notiqlik, matematika (riyoziyot),ometriya (handasa) kabi fanlar ham o`qitilganligi rus hukumati ma`murlari tomonidan ham e`tirof etilgan. Ammo mantiq falsafa, handasa, arifmetika kabi predmetlar bo`yicha yozilgan darsliklarning ko`proq arab tilida ekanligi mazkur sohalardagi bilimlarni lug`atlar yordamida o`zlashtirishni taqozo etgan va bu hol o`quv jarayonini yanada murakkablashtirgan.<sup>38</sup>

---

<sup>38</sup>Жуманазар А. Мадорис. Ўргимчак китоби. Б.88.

Madrasalarda ta'limning quyi bosqichida dars o'tilganlarni takrorlash bilan boshlangan. Bilimlarni tekshirish mudarris bergan savollar orqali o'tkazilgan. "Sharhi Mullo" kitobini o'qishga o'tilgach, takrorlash darslari to'xtatilgan.

Madrasalar o'quv dasturlarida mantiq masalalariga bag'ishlangan darsliklar ("Ar-Risolat ush-Shamsiya" kitobi, Abu al-Fathning "Majmuayyan mantiq" risolasi hamda "Mantiq masalalari yuzasidan" risola hamda "Mantiq" kabi kitoblar) alohida o'rin tutgan. Masalan, arab tilida yozilgan muqaddima va uchta maqolani o'z ichiga olgan "Ar-Risolat ush-Shamsiya" kitobida asosan mantiq ilmi qoidalari haqida bahs yuritilgan. Bundan tashqari, mantiq darsida o'tilgan Najmiddin Nasafiy tomonidan yozilgan "Al-risola al-shamsiya fi-l-qavoid al-mantiq" kitobi mantiq mohiyatini anglab yetishni o'rgatgan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, madrasalarda oliy mantiq fani hisoblangan "Tavzih," darsida Qur'on, hadis, ijmo va qiyos haqida umumiy ma'lumot beruvchi fan o'tilgan".

Shuningdek, Buxoro madrasalarida Kahistoniyl tomonidan arab tilida yozilgan "Jomi' ur-rumuz" fiyd kitobi ham darslik sifatida o'qitilgan. Fiyd kitoblari asosan ikki narsa ustida bahs yuritadi: 1) Alloh taolo va banda orasidagi munosabat (ibodatlar). 2) Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.

Buxoro madrasalaridagi o'quv dasturiga ko'ra "Talhiz" nomli darslik arab tilining nozik jihatlarini tushunish, arab tili nutqini o'rganish uchun yozilgan bo'lib, bu kitobga "Muhtasar ul-Maoni" deb nomlangan "Sharhi Talhiz" yozilgan va sharhlangan.

Bundan tashqari, madrasalarda "Tavsir-ul-Jalolayn" 4 jildli kitobi ham o'rganilgan. Bu kitob Qur'oni Karimni tafsiri bulib, Husain Voiz Koshifiy qalamiga masnub va juda mashhur kitob hisoblangan. Dunyoning deyarli barcha madrasalarida bu kitob o'rganilgan.<sup>39</sup>

O'qish jarayonida Qur'oni Karim va boshqa bir qancha manbalarni yod olish Madrasa talabalarining xotirasini mustahkamlagan. Katta-katta parchalarni yod olish garchand "ko'r-ko'rona yod olish" deyilsada, ammo bu xotirani mustahkamlagan. Shu tufayli bo'lsa kerak, madrasalarni tugatganlar mushohada

---

<sup>39</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари).Т.,Адиб. 2014. –Б.60.

davralarida o'z mulohazalarini diniy kitoblar, Hofiz, Jomiy, Fuzuliy, Navoiy, Sa'diy, Bedil asarlaridan keltirilgan fikrlar bilan asoslab, o'z hozirjavobliklari bilan e'tibor qozonganlar.

Huquqshunos olim Z.Muqimovning yozishicha, madrasalarda o'qitiladigan musulmon huquqiy ta'limi islom huquqiy falsafasi sifatida bir-biri bilan bog'langan oltita ilmiy sohani birlashtirgan: 1)“Ilm-at-tafsir ul-Qur'on” - Qur'onni sharhlash haqidagi ilm; 2)“Ilm ul-Hadis” - Hadis ilmlari; 3)“Ilm ul-usul ad-din” - din asoslarini o'rganadigan fan; 4)“Ilm ul-fivd” - huquq asoslarini o'rganadigan fan; 5)“Ilm ul-usul fiqh” - fiqh huquq) tarmoqlarini o'rganadigan fan; 6) “Ilm ul-faroiz”-meros va uni bo'lish masalalari to'g'risidagi fan.<sup>40</sup>

Ubaydulloh ibn Mas'udning arab tilida yozilgan “Muhtasar ul-viqrya” deb nomlangan risolasi Buxoro madrasalarida darslik sifatida o'qitilgan. Bu kitob ko'pincha “Muhtasar” deb yuritiladi. “Hidoya” kitobidan 11 marta qisqartirib olingan fikhiy masalalar ham bu kitobda o'z aksini topgan. Masalan, bu kitobning 5-betida: ‘Tuslda bo'lmagan tahoratsiz kishi oyoqqa mahsi kiyib mash tortishi joizligi’ aytilgan. Ushbu kitobning birinchi bo'limida namoz, tahorat, zakot va haj to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Buxoro madrasalarida fiqh ilmini o'rganish uchun talabalar “Hidoya”, “Ilmi Faroiz”, “Ilmi Qiroat”, “Muhtasar ul-viqoya”, “Sharh ul-viqoya”, “Usuli fiqh”, “Ilmi kalom” kabi kitoblarni to'la o'rganib chiqishlari talab etilgan. Qayd etilganlardan “Ilmi faroiz” bevosita fiqhga tegishli bo'lib, u meros huquqini o'rgangan, vorislar o'rtasida molk-mulkni bo'lish masalalarini hal qilishda yordam bergan, shu bilan birga riyozat (matematika)ni o'rganish shart qilib qo'yilgan. Chunki matematik hisob-kitobni bilmagan kishi meros qilingan mol-mulkning hisob-kitobini qilolmas va turgan gapki, adolatli hukm ham chiqara olmas edi.

Matematikaning to'rt amali yaxshi o'zlashtirilgandan keyin geometriya fani o'qitila boshlangan. Yer maydonlarini o'lchash, oddiy figuralar, uchburchak va to'rtburchaklar to'g'risida ma'lumot berilgan. Bu bilimlar albatta yerni o'lchash va

---

<sup>40</sup> Муқимов З. Мовароуннахр фикх мактаби, - Самарқанд, 1997. - Б. 42.

vorislar o`rtasida yerni taqsimlash, yerni sotib olish va sotish masalalarini hal qilish uchun kerak bo`lgan. Shu ma`lumotlar bilan matematikani o`rganish yakunlangan.

Madrasalarda Muhammad Izzatning “Jomi ul-Muallim” deb nomlangan kitobi ham darslik sifatida o`tilgan. Ushbu darslik Muhammad ibn Muso Xorazmiyning “Aljabr va al-muqobala” kitobi asosida tuzilgan. Bu kitob algebra fanini hamda taqvim jadvallarini o`z ichiga olgan. Bundan tashqari bu kitobda geometriyaga oid muhim masalalar, kosmografiya, mexanika va yer bilimlariga oid sohalar ham atroflicha yoritilgan.

Sadriddin Ayniyning qayd etishicha, Buxoro madrasalarida din ilmi bilan baravar hisob, handasa, tarix, tabobat, hikmati tabibiya, mantiq, adabiyot kabi fanlarga ham ahamiyat berilib, o`qitilar edi. Shuningdek, Sadriddin Ayniyning qayd etishicha, “Hisobni, umuman matematikaga oid darslarni o`qishni istagan talaba bu fanning mutaxassisini topib, uning oldida o`qirdi. Adabiyotni istagan odam u bilan xususiy tarzda shug`ullanardi. Ona tili boshlang`ich (an`anaviy) maktablarda va madrasalarda dars qilib o`qitilmagani kabi, o`quv kitoblarining tili bo`lgan arab tili ham dars qilib o`qitilmas va yuqorida aytilgani kabi faqat arab tilining sarfu nahvi o`qitilardi. Ona tilini har bir talaba eski kitoblarning mutolaasidan o`qir edi”. Shuning uchun ham madrasada tahsil olgan talaba mudarris rahbarligida fors tilida yozma ravishda o`z fikrini bayon eta olgan, deb yozgan edi o`sha davr matbuoti.

O`z vaqtida Buxoroga tashrif buyurgan A.Lemann, P.Demezson va baron Meyendorf Buxoro madrasalarida bo`lib, bu yerda jahon tarixi sifatida ikkita asar: “Habib-us-siyar” va “Ravzat us-safo” o`qitilgani, mudarrislar Aleksandr Makedonskiy haqida ma`lumotga ega ekanligini yozib qoldirishgan. 1911 yilda Fotig Karimov tomonidan yozilgan “Tarix” deb nomlangan asar ham madrasalarda darslik sifatida o`qitilgan.

Ayrim madrasalar alohida ixtisoslashganligi bois, ularda maxsus fanlar o`qitilgan. Masalan, tabiblar tayyorlashga moslashgan Doru-sh-shifo madrasasida Abu Ali ibn Sino, ar-Roziy, Abu Xasan Ali ibn Rizvon Misriy, Subhonqulixon

kabi tabiblarning asarlari o`rganilgan. Bundan tashqari 1511 yilda yozilgan, 101 betdan iborat Muhammad Yusufning “Tibbiy Yusufiy” deb nomlangan risolasi tibbiyotga taalluqli ma’lumotlar haqida bo`lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o`qitilgan.

Talabaning turar joyi bilan darsxona boshqa-boshqa joyda bo`lgan hollarda talabalar ikki-uch chaqirimlik yo`lni bosib o`tishlariga to`g`ri kelgan. Talaba o`qish vaqtidan boshqa har bir dars uchun ikki-uch soat vaqt sarf qilishga majbur bo`lardi. Odatda, madrasalarning mudarrislari, ayniqsa, nom chiqargan katta domlalar bir kunda o`rtacha, soat sakkizdan o`n ikkigacha (tushlikkacha) dars berishni o`z zimmlariga olardilar.

Madrasa darslarini tamom qilgan talabalarga Qur’on tafsiri, payg`ambar hadislari, fiqhi islomiydan dars berishga ijozat berilgan.

Buxoro madrasalarini tugatgan talabalarga maxsus guvohnoma berilgan. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida Samarqanddagi Ulug`bek madrasasini tugatgan balxlik Shamsiddin Muhammadga berilgan guvohnoma-sanadning nusxasi saqlanmoqda. Unda madrasada o`qitilgan fanlarning nomlari keltirilgan.<sup>41</sup> Qo`limizdagi ayrim hujjatlar - ijozatnomasini ustoz domlalalarning o`z shogirdlariga dars berish huquqini berganlari yozilgan.

Madrasalarda o`qitiladigan o`quv fanlarning tarkibi, an’anaviy tarzda tashkil topishi bilan birga, talabalarining fakultativ, ya’ni ixtiyoriy ravishda o`rganadigan ilmlardan ham tashkil topgan.

Shu tariqa Buxoro madrasalarida talabalar 18-20 yil davomida juda ko`plab diniy-falsafiy, diniy-huquqiy yo`nalishdagi kitoblarni, qo`llanmalarni, sharhlarni (glossariylar), sharhlarga yozilgan sharhlarni (ya’ni subkommentariyalarni) o`rganib chiqishga majbur edilar. Madrasa talabasi, albatta, bu kitoblarning hammasini mukammal o`zlashtira olmagan, asosan, ulardan kerakli joylarini yod olish, ayrim qismlarini sharhlab berish bilan chegaralangan. Madrasadagi oliy ta’limning butun qiyinchiligi va mashaqqati ham ana shunda edi. Arab tilini mukammal o`zlashtirish, kitoblarga yozilgan sharhni o`rganish ko`p vaqtni olardi.

---

<sup>41</sup> Ахмедов Б. Улуг`бек. Историческая повесть. Т.,Камалак, 1994. -С.109.

Tadqiqotchi D.D.Ziyayeva ta'kidlaganidek, "Iqtidorli talabalarni mustasno qilganda, aksariyat talabalar uchun ancha murakkab bo'lgan, faqatgina dars jarayonida qo'llanilgan, kundalik muloqotda iste'molda bo'lmagan arab tilida ta'lim olish o'quv jarayonini murakkablashtirgan".<sup>42</sup>

Darhaqiqat, madrasalarda keyingi asrlarda hoshiyachilikka katta e'tibor berilgan. Hoshiya-muayyan kitobga qo'shimcha, sharh va izohlar, ya'ni Qur'ondagi ayrim tushunilishi qiyin bo'lgan jumla yoxud so'zni sharhlab, kitob hoshiyasiga yozish va shu yuzasidan munozara olib borishdan iborat bo'lgan. Abdurauf Fitrat, hoshiyaga "sharhning sharhi" deb ta'rif bepgan. Haqiqatan ham hoshiya (sharh)lar har bir kitobga yozilgan. Masalan, "Aqoid" kitobiga Hayoliy, Mulla Ahmad, Abdulhakim, Asomiddin, mulla Qosim Horputiy, Sarihlarning hoshiyasi yozilgan.

Ko'p sonli hoshiya kitoblarini madrasa talabalari 7-10 yil davomida yodlaganlar. Ammo nafaqat madrasa talabalari, hatto mudarrisning o'zlari ham bu hoshiya kitoblarini yahshi tushunmas edilar. Shuning uchun ham Yaqin va O'rta Sharq musulmonlari va hatto Rossiyadagi musulmon o'lkalaridagi madrasalarning mudarrislari ham o'qigan bilan hech qanday foydasi bo'lmagan bu hoshiya kitoblardan allaqachon voz kechgan edilar. Ammo, Buxoro madrasalarining ko'pchiligida bunga hamon katta e'tibor berilardi.

1911 yilning boshlarida Buxoro madrasalarining bir guruh talabalari madrasalardagi o'qitish tizimini isloh qilish lozimligi haqida amir Said Olimxonga ariza topshirdilar. Talabalar, madrasalarda hech bir tartib va qoida yo'qligi, asosiy fanlar o'rniga ahamiyatsiz hoshiya va sharhlar o'rgatilayotganligi, talabalarining moddiy ahvoli og'irlashib ketganligi, ajratilgan vaqfdan foydalanishning imkoniyati yo'qligi va boshqa kamchiliklar ustidan shikoyat qiladilar. Amir arizada ko'rsatilgan kamchiliklarni tuzatishga buyruq berdi. Lekin mutaassibchilarning talabiga binoan qozikalon Baqoxo'ja amirni birinchi

---

<sup>42</sup>Зияева Д. XIX аср охири-XX аср бошида Туркистонда анъанавий таълим тизими муаммолари // Тошкент Ислон университети. Илмий – таҳлилий ахборот. 2009. №3 -Б.10.

buyruqning aksi bo'lgan, ya'ni madrasalarda islohotlarni man' qilish to'g'risida buyruq chiqarishga ko'ndiradi.

XIX asr boshida Buxoro madrasasida mudarrislik qilgan Abu Nasr al-Kursaviy Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqqan mudarrislarining rahnamosi edi. Ammo bu harakat qarshilikka uchradi. XIX asrning boshida taniqli tatar olimi Abu Nasr al-Kursaviy boshlab bergan diniy-islohotchilik harakati XIX asrning oxiriga kelib ancha jonlangan edi. Buxoro amirligida ushbu harakatga tatar ma'rifatparvari Sh.Marjoniy, Buxorolik Xo'ja Nadoimiy, domla Hojiboy, samarqandlik qozi Abu Said, vobkentlik Mo'min Xoja, boysunlik Mullo Xudoyberdi boshchilik qilar edi. Bularning hammasi Buxoro shahridagi madrasalarda mudarrislik qilar va madrasa ta'limini isloh etish tarafdorlari edi.<sup>43</sup> Ular Madrasa ta'limidan eskirgan, keraksiz kitoblarni (sharhlarni) chiqarib tashlashni, madrasada dunyoviy fanlarning ham o'qitilishini, Qur'onni tarjima qilishni talab etishdi. Ammo islohotchilik g'oyasi bilan chiqqan Xo'ja Nadoimiy, domla Hojiboy, Mullo Xudoyberdilar amir tomonidan jazolanishdilar. Shahobiddin Marjoniy esa Buxoroni tark etdi.

XIX asr oxirida Ahmad Donish ham maktab va madrasalarda o'qitishni isloh qilish g'oyasi bilan chiqadi. Sadriddin Ayniyning xotirlashicha "Buxoroning porloq yulduzi Ahmad Donish" o'z kitobida rasmiy mullalarni keskin tanqid qilib, ulamo va umaro orasida bo'lgan tartibsizliklarni ochib bergan, dare usullarining nuqsonlarini va Buxoro madrasalarida o'qitiladigan darslarning bir narsaga yaramasligini hech kimdan qo'rqmasdan oshkor etgan. Ahmad Donish "Davlat qurilishi va kishilarning o'zaro munosabatlari haqida risola"sida Amir Muzaffarga murojaat qilib, mamalakatda islohotlar o'tkazishni da'vat etadi. Ammo amir va uning yaqinlari uning bu islohotchilik g'oyalariga javob berishni ham lozim topmaydilar. Ahmad Donishning g'oyalarini zamonasining ilg'or ziyolilaridan Mulla Karomat, Dilkash, Muhammad Solih, Mulla Iskandar, Qori Kamol,

---

<sup>43</sup> Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари // Ҳуқуқ ва бурч. 2000. - №2. - Б.37.

Muztarib va Mir Otajon kabi qator zamondoshlari qo'llab-quvvatlaydilar. Uning "Navodir ul-vaqoe" nomli kitobi ham shu g'oyalar bilan sug'orilgan edi.

Abdurauf Fitrat "Munozara" kitobida "Farangi" tilidan shunday deydi: "Ajabo, bir jumlani o'qish bir kundan ortiq vaqt talab qilmaydi-ku?! Ular nima uchun bir jumla ketidan bir yil yuguradilar?" Farangining bu savoliga Buxorolik mudarrisning javobi shunday: "Hoshiya o'qiydilar, hoshiya!". Bu yerda shu narsa anglashilayaptiki, Madrasa talabasi arab tilida bitilgan kitobga yozilgan sharhni mukammal o'rganib olishi uchun bir yil vaqtini sarflagan. Fitrat farangi tilidan yana shunday deydi: "Bu ne behudalik, nechuk vaqt o'tkazishdirki, Buxoro mardumi bunga giriftor bo'lmish? O'ttiz to'qqiz yillik qimmatli va aziz umrini bir muftiga behuda sarf qilgach, keyin mazkur puch va bema'ni tadqiqotning tadrisinga (kinoya bilan aytilgan: haqiqat darsiga) mashg'ul bo'ldilar, ammo, tahsili vojib bo'lgan Tafsir, Hadis, Fiqh, Usuli fiqhni o'rganish vaqti qachon keladi va yana bu yigirma yilda Nahv, Mantiq, Aqoid, Hikmatdan o'qigan bo'lsalar ham faqat ularning debochasi ekan. Mazkur ilmlarning aslini, foydali asosiy qismini qachon o'qiydilar?". Qayd etilganidek, madrasalarda diniy falsafa va islom huquqi asoslarini o'rgatuvchi fanlarga hoshiya va sharhlardan ortib, navbat ham kelmagan.

Buxoro shahridagi taniqli mufti, domla Ikrom ham islomni mutaassiblik, aqidaparastlikdan xalos etish, ta'lim tizimini isloh qilish, ma'nosiz va foydasiz turli sharhlar va hoshiyalardan voz kechib, islom ta'limotining asosiy manbalarini o'qitish, dars jadvaliga dunyoviy bilimlarni kiritish uchun kurashishga katta kuch-g'ayratlarini sarflaydi. Bu borada amir, mufti, qozi va ulamolarning siyosatini tanqid qiladi. Ularning kirdikorlarini ochib tashlaydi. U o'zining jadid maktablari, umuman, Buxorodagi xalq ta'limiga tegishli bo'lgan fikr va izlanishlari natijasini umumlashtirib bir risola yozadi, uni chop ettirib, xalq orasida tarqatadi. 1910 yilda Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida nashr etilgan ushbu risola "Uyqudagilarning uyg'onishi va nodonlarning ogoh bo'lishi" deb nomlanib, uning birinchi qismida jamiyatdagi umumiy kamchiliklar ochik tanqid qilingan bo'lsa, ikkinchi qismi, hokimlar, qozilar, ulamolarga tegishli bo'lib, ularning fisqu-fasodlari ochib tashlanadi, so'ngida esa ilgari surilayotgan xalq ta'limini isloh

qilish g'oyalari shariat me'yorlari asosida isbot qilinadi. Domla Ikromning faoliyati albatta hukumatga yoqmaydi. Amir uni ikki marta Buxorodan surgun qiladi.

Buxoro madrasalarida o'quv jarayonida talabalarning ko'p vaqti asosiy bo'lmagan kitoblarni o'qishga keraksiz bo'lgan jummalarni mutolaa qilishga ketishi haqida S.Ayniy shunday yozadi: "Amir Muzaffar davri saltanatida rasmiy darslarda sharh va hoshiyalarga ko'p e'tibor qaratilib. umumiy fanlardan, tafsir va hadisdan nishona qolmagan. Amir Abdulahad davrida bora-bora ish shul darajaga keldikim, rasmiy sharhlar ham oradan butunlay yo'qolib, kitoblarning debocha va hoshiyalaridan bir qadar jamlab, majmuai ismida tab' qildirib o'qidilar. Talabalarning 18-20 yillik Madrasa hayoti rasmiy kitoblarni tamom o'qimoq nari tursin, mazkur kitoblarni ko'rmasdan o'tib ketaturgan bo'ldi".<sup>44</sup>

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi mavjud madrasalar, ya'ni o'quv yurtlari son jihatdan, o'qishni istagan barcha yoshlarning bilim olish ehtiyojini qondirishi uchun yetarli bo'lsa-da, o'qitiladigan fanlarning tarkibi asosan, islom ta'limoti va musulmon huquqi bilan uzviy bog'liqligi, dunyoviy bilim yetishmasligi ularning taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Bir tomondan, madrasalar talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, ularda xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odat, axloq-odob me'yorlari, tarixiy -milliy qadriyatlarini saqlab qolishga, ularni kamtar, xushmuomalali, rostgo'y, olijanob, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam bergan. Ikkinchi tomondan, o'qitish asosan XI-XII asrlarda yaratilgan kitoblarni mutolaa qilish bilan cheklanib kelganligi, umumiy taraqqiyotni ko'zlab aniq tuzilgan dasturning yo'qligi, ta'lim tizimida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi va jamiyatning iqtisod, savdo, qishloq xo'jaligi, fan, tibbiyot kabi sohalarida muammolarni yechishga xizmat qilmay qo'ydi.

---

<sup>44</sup> Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Асарлар. — Тошкент: 1963. I - том. - Б. 188.

Madrasalarda, asosan, ilohiyot va fiqh masalalari bo'yicha bilim berilib, aniq fanlar e'tibordan chetga qoldi. Albatta, bu holat umumiy taraqqiyotning susayishiga olib keldi va boshqa mamlakatlardan orqada qolishga sabab bo'ldi.

Xullas, bu davrda Buxoro amirligida madrasalar faoliyati asrlar davomidagi an'analar doirasida bo'lgan. Ular moddiy ta'minoti jihatidan davlatdan mustaqil bo'lib, asosan xayriya asosida yuzaga kelgan vaqf mulkchiligi daromadidan faoliyat yuritgan. Madrasalar bu davrda ham Buxoro amirligida an'anaviy ma'rifiy maskan sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Ammo ta'lim tizimining diniy bilim doirasida cheklanib qolib, dunyoviy bilimlarga yetarli e'tibor qaratilmaganligi, ona tilida bilim berilmaganligi, zamona talablaridan, rivojlangan Yevropa mamlakatlarida bu sohada erishilgan yutuqlardan chetda qolganligi sababli u chuqur islohotlarga muhtoj edi.

## **2.2.Madrasalarning qurilishi va moddiy xo'jalik ta'minoti**

Har bir madrasalar ularning asoschilari nomi bilan atalgan. Kim madrasani qurdirgan bo'lsa, ushbu madrasaga uning ismi, qishloq joylarda Madrasa qaysi qishloqda joylashgan bo'lsa o'sha qishloqning nomi berilgan.

Madrasalar qurilishiga hukmdorlar katta e'tibor qaratsalarda, ular xususiy xayr-ehson evaziga faoliyat qo'rsatgan. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurilishi shart bo'lib, xon va amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xilof hisoblangan.

Yirik madrasalar hujralar,toqli-ravoqli,ichki-tashqi sahnli,masjid,darsxona,tahoratxona,kutubxona,darvoza,hovuzli majmua va kichik madrasalar odatda faqat hujralardan iborat bo'lgan.

Madrasalarning qurilishi jihatidan g'ishtin,sangin,ganch,cho`bin,xom g'ishtinga bo`linadi.

G'ishtin – pishiq g'ishtdan qurilgani aytilmagan madrasalar ham juda ko'pchilikni tashkil qiladi.Jo'ybori Kalon madrasasi vaqf hujjatiga voqif:"Agar

imoratning birorta g'ishti siniq holda qolarkan,vazifadorlarning hech biriga bir chaqayam berilmasin"-deb buyruq yo`sinida qat`iy shart qo`yadi.

Sangin – aksariyat hollarda pishiq g'ishtdan qurilgan madrasalar binolari nazarda tutiladi."Sangin " forsiy tildan turkiy tilga o`girilganda "toshli" ma`nosini anglatadi.Bir qancha madrasalar poydevorlari va hovlilari haqiqatdan ham toshdan ishlangani hozir ham ko`rinib turibdi.

Cho`bin – madrasalar,hujralar,sarmozorlarda qurilgan o`quv dargohlarining salmoqli qismi cho`bin binolardan iboratdir.Ikki daryo oralig`i shahar va qishloqlarida qurilgan imoratlarda faqat yog`ochdan qurilgan imoratlar deyarli uchramaydi.Shu sababdan "cho`bin" deyilganda Sibir,Tatariston,Boshqirdiston o`rmonlarida barcha qismi daraxtlardan yo`nib quriladigan yog`och uylar kabi binolarni emas,bizdagi mahalliy sinchli imoratlarni tushunish kerak.Turon hududida qurilgan imoratlarning avval yog`ochdan bo`lgan "sinch" qismi tiklanadi.So`ngra ular orasida guvala,xom g'isht yo paxsaning o`ziga xos turi joylashtirib chiqiladi.Bu ish yetarli tajriba va mahorat talab qiladi.Bunday imoratlarga gishtin imoratlarga nisbatan mablag` kamroq sarflanadi.Cho`bin binolar pishiq g'ishtdan bunyod qilingan madrasalar singari bir necha asrlar saqlanib turishi qiyin edi,albatta.Shunga qaramay,Buxoroda bu turdagi o`quv dargohlaridan ham keng foydalanishgan.

Xom g'ishtin – Turkistonda keng tarqalgan imoratlar qurilishi ashyosidir.Undan hozirga qadar binolar qurish maqsadida ommaviy tarzda foydalaniladi.Tomi yog`ingarchilikka qarshi yaxshilab yopilsa,u sog`liq uchun eng foydali binolardan hisoblanadi.Qishda issiqni va yozning ayovsiz jazirasida salqinni yaxshi saqlaydi.Lekin u ham muntazam ta`mirlanishga qaramay,bir necha asr turmaydi.Fursati yetganda o`rniga boshqatdan imorat qurishgan.<sup>21</sup>

Buxoro madrasalarining binolari asosan pishiq g'ishtdan, ikki qavatli yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo`lib, ba`zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan.

---

<sup>21</sup> A.Jumanazar.Buxoro ta`lim tizimi tarixi.Toshkent:-Akademnashr;-2017.-592 b.

Madrasalar ichki va tashqi maydoniga ega bo`lgan. An'anaviy tarzda uning birinchi qavatida darsxonalar, kutubxona, masjid, tahoratchona, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar bo`lgan.

Madrasalar qurish ishi Buxoro amirligida o`ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Asrlar osha bu ish bilan shug`ullanilganligi bois, bu borada boy tajriba ham shakllanib bo`lgan edi. Shuning uchun Buxoro madrasalari nafaqat o`quv yurti, balki o`ziga xos me'moriy inshoot ham edi. Buxorodagi Ulug`bek, Mir Arab, Nodir Devonbegi, Ko`kaldosh, Abdullaxon va Abdulazizxon madrasalari bebaho va nodir me'moriy yodgorlik sifatida hozirgi kunda ham mashhurdir.

Buxoro amirligida eng mashhur va nufuzli oliy o`quv yurti bu Mir Arab madrasasi bo`lgan. Madrasaning nomi ham uni qurdirgan shayx nomi bilan bog`liq bo`lib, uning to`liq ismi Mir Arab Abdulloh al-Yamaniy bo`lgan. 1530 yilda bunyod etilgan bu Madrasa shaharning markaziy qismida qurilgan, uning baland peshtoqlari va gumbazlari bo`lib, 22 shimoliy gumbazi yarim koshin bilan qoplangan, janubiy gumbazi esa bezatilmagan. Madrasaga hashamatli baland peshtoqdan kirilgan. Madrasaning g`arbiy tomoni Masjidi Kalon nomi bilan atalgan masjidga tutashgan. Madrasaning rejasi va undagi binolar huddi Ulug`bek madrasasidagidek joylashtirilgan. Madrasada shayx Abdulloh va uning qarindoshlari dafn qilingan, shuningdek go`rxona ham mavjud bo`lib, dabdabali qilib bezatilgan. Madrasa bilan masjid orasida shahar aholisi yuradigan yo`l bo`lgan. Madrasa hovlisining chor atrofi ikki qavatli hujralar bilan o`ralgan. Mir Arab madrasasining vaqfnomasida qayd etilishicha, bu yerdan juda ham ko`p olim va ulamolar etishib chiqqan.

Buxoroda hukmdor bo`lgan xon va amirlar tomonidan ham ko`plab hashamatli madrasalar bino etilgan. Masalan, shayboniylardan Abdullaxon II va mang`itlardan Amir Haydar Buxoro arkida maktab, masjid, xonaqoh, Madrasa qurilishini qo`llab-quvvatlagan.

Faqatgina XIX asrda 60 dan ortiq Madrasa qurilgan<sup>49</sup> bo`lib, ularning orasida amir Nasrulloh madrasasi (1860 yilda), amir Muzaffar madrasasi (1868 yilda), amir Olimxon madrasasi hukmdorlar tomonidan barpo etilgan. O`zi qurdirgan Madrasa to`g`risida amir Olimxon shunday deb yozgan: “Buxoro minorasining past tomonida o`z nomimdan Dori-l-ulum - bilim uyi bo`lgan bir Madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-harajatlari, maosh va kiyim-kechak dam o`z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim. Ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazardim”.<sup>50</sup> Bundan shuni anglash mumkinki, bu Madrasa qurilgan vaqtda amir Olimxon vaqf mulki haqida gapirmayapti. An`anaga muvofiq vaqf mulkidan emas, balki davlat ta`minotidan foydalanganligi haqida gap bormoqda. Demak, XX asr boshida Madrasa ta`minotiga munosabat o`zgara boshlagan.

Madrasalarning ayrimlari ayollar tomonidan ham qurdirilgan. 1700 yilda qurilgan Bibi Xalifa madrasasining vaqf hujjatida shunday jumla mavjud: “Iffatpanoh, ismatdastgoh, zayn ul-mashvarat, ayollar sharaflisi, afifa, soliha, sojida, haramayn ul-sharifaynni haj qilishga muyassar bo`lgan Hoji Bibi Xalifa binti marhumi mag`furi tarik ur-rahmat va rizvon Mulla Muhammad Sa`id Buxoroda hazrat kutb ul-aktob (mir Tahur devon) masjid va xonaqohi guzarida Madrasa qurishga kirishishi”. Madrasa tosh, pishiq g`isht va yog`ochdan qurilib, uning 30 ta hujrasi, 4 ta gumbazi, darsxona, ichki va tashqi hovlisi bor edi. Ayrim manbalarda ayshlishicha, ushbu madrasada faqat qizlar o`qitilgan ekan.

Boloyi Hovuz madrasasini ham ayol kishi qurdirgan. Ushbu madrasani Buxoro xoni Subhonqulixonning Podshohbibini ismli xotini 1703-1704 yilda qurdirgan. Podshohbibining ikkinchi nomi Sitorayi Moh xonim bo`lgan. Madrasaning vaqf hujjatiga aynan “Sitorayi Mohi Hossa madrasasi vaqfi” deb yozilgan. Tarixdan ma`lumki, amir Said Olimxon ham 1911-1915 yillarda huddi

---

<sup>49</sup> Ремпел Л. И. Далекое и близкое. Бухарские записи. - Ташкент: Литературы и искусства. 1981. - С. 4.

<sup>50</sup> Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг хасрати тарихи. - Тошкент: Фан. 1991. - Б.8.

shunday nom bilan shaharning chetrog`ida saroy qurdirgan. Shu sababli Sitorayi Mohi Xossa deganda, amir Olimxon qurdirgan saroy ham anglashiladi.

Buxoro qal'asidan tashqarida, Jo'ybor mavzesining tarbida joylashgan madrasani 1790 yilda Muhammadxon Elbarsxon qizi Oyshabibi qurdirgan. Madrasaning ichi, hovlisi va hujralarining hammasi pishiq g'ishtdan bo'lgan. Bu Madrasa Nafas qishlog`idagi eng mashhur madrasalardan biri hisoblangan. Oyshabibi Mudin qishlog`idagi to'rtburchakli, 150 tanob (bir tanob-3600 kv. ga ega) yerini ham Madrasa xizmati uchun bergan.

Buxoroning oxirgi qozi kalonlaridan biri bo'lgan Sadri Ziyo o'z asarlarida Buxoro shahridagi 204 ta madrasani tadqiq etgan. Uning yozishicha, Buxoroda quyidagi madrasalar ayollar nomi bilan atalgan: Saroy Oyim madrasasi, Zubayda Oyim madrasasi, Mang'it Oyim madrasasi, Bibi Xalifa madrasasi, Modarixon madrasasi, Sharofatbonu madrasasi, Qalmokjon Oyim madrasasi, Chuchuk Oyimning Sangin madrasasi.<sup>51</sup>

1900-1920 yillarda Buxoro shahrining nufuzli kishilari ham bir qancha madrasalar qurdirganlar va ularning faoliyatini ta'minlash uchun vaqf mulkini vasiyat qilib qoldirganlar. Masalan, Obiravon mahallasi va Masjidi Baland mahallasida noma'lum boy tomonidan sakkiz hujradan iborat madrasalar, Kemuhtgaron mahallasida chorjo'yli boy, Avliyoyi g'arib mahallasida Domla Ruzi, Tupaxon mahallasida Bakoboy, Xo'ja Rofe mahallasida yirik boy Jo'ra changlok (32 hujralik), Zamucha mahallasida toshkentlik Mullo Sulton (2 hujralik), Dijushoyi darun mahallasida noma'lum keksaygan ayol, Mir Tahuri devon mahallasida Xo'ja Qurbon ismli go'rkov, Kokida mahallasida Abdujafar boy, Kosagaron mahallasida shahrisabzlik Yo'ldoshboy va bozor oqsoqoli Ibrohim oksoqol hammasi bo'lib 12 ta madrasani qurdirganlar.<sup>52</sup>

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro madrasalarining eng mashhurlari sifatida Ko'kaldosh, Miri Arab, Abdullahon va Zargaron madrasalari ko'rsatiladi.<sup>53</sup>

---

<sup>51</sup> Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофей // Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изохлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. - Тошкент: Академия, 2001. - Б. 86-102.

<sup>52</sup> Сухарева О. А. Квартальная община раннефеодального города Бухары. - М.: 1975. — С. 75-98.

<sup>53</sup> Сухарева О. А. Бухара XIX - начала XX в. - Москва: Наука. 1966. - С. 304.

Abdullaxon madrasasi ikki qavatli bo`lib, to`rtta fonus bilan yoritilgan. Birinchi va ikkinchi qavatlarda sakkizta fonus bo`lib, har bir fonusda 16 murabba' hujra qurilgan. Peshtoqining balandligi 45 arshin (71,12 sm h 45 q 32 m) keladi.

Buxoro shahridagi ko`p madrasalar yonida masjidlar bo`lib, XX asrning boshlarida bu yerda 360 ta besh vaqt namozlik va 18 ta jome' masjidi ishlab turgan. Ayrim Madrasa va masjidlar o`rtasida devor tortilgan. Madrasa talabalari masjidga oson kirib chiqishlarini ta'minlash maqsadida kichkina darcha-eshik ochilgan.

XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligining yagona rus bojxona tizimiga kiritilganidan keyin Rossiya imperiyasi hukumati amirlik chegaralarini "qo`riqlash" bahonasi bilan Eron, Afg`oniston, Hindiston, Xitoy (Qashqar)dan, Rossiya hududidan (xususan, Qrim, Tatariston, Shimoliy Kavkazdan) keladigan musulmon talabalarining o`qishiga turli yo`llar bilan to`squinlik qilishga astoydil harakat qiladi. Siyosiy agentlikka Rossiyadan Buxoro madrasalariga o`qishga keladigan yoshlarning sonini ancha kamaytirish to`g`risida maxsus ko`rsatma beriladi. Natijada Madrasa talabalarining soni yildan-yilga kamayib borgan. Agar Shohmurod amirligi (1785-1800 y.) davrida madrasalarda 30 ming talaba tahsil olgan bo`lsa, XX asr boshiga kelib, ularning umumiy soni 10 ming mullavachchani tashkil etgan. Ammo amirlik hukumati Buxoro madrasalarida Rossiya fuqarolarining kelib o`qishini ta'qiqlab qo'yish musulmon xalqlarining noroziligiga sabab bo`lib, tartibsizliklar kelib chiqishidan xavfsirab, bu jarayonni butunlay to`xtata olmagan.

Bu davrda Buxoro madrasalarining soni haqida turli manbalarda va asarlarda turlicha ma'lumot qayd etiladi.<sup>54</sup> N.Xanikov madrasalar sonini 180-200 ta, talabalar sonini esa 15-16 ming nafar deb ko`rsatgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Buxoro amirligidagi madrasalar sonini o`sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyoyev 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoni esa 400 ta deb ko`rsatadi. Xullas, turli

---

<sup>54</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими XIX аср охири XX асрнинг бошлари. Тошкент: Адиб. 2014.-Б.40.

ma'lumotlar umulashtirilganda Buxoro amirligida 200 dan 400 tagacha Madrasa mavjud bo'lgan. Buxoro amirligiga qo'shni, ilgari mamlakat tarkibida bo'lgan Samarqand viloyatida 217 ta Madrasa bo'lganligi nazarda tutilsa, amirlikda 400 taga yaqin madrasa mavjudligi haqiqatga ancha yaqinligi ma'lum bo'ladi. Turkiston general- gubernatorligi hisoboti bilan bog'lik arxiv hujjatlardan birida 1914-yilda Buxoro amirligida 350 ta Madrasa faoliyat ko'rsatayotgani qayd etilgan.

Shuningdek, O.A.Suxarevaning fikricha, birgina Buxoro shahrining o'zida 133 madrasa bo'lgan.<sup>55</sup> Yana bir tadqiqotchi L.I.Rempel XX asr boshlarida Orenburgdan chiqqan "Sho'ro" jurnalining ma'lumotlariga asoslangan holda Buxoroda oliy darajadagi madrasalar - 34 ta, o'rtalari - 35 ta, quyilari esa - 100 tadan ortiq bo'lganligini ko'rsatib o'tadi. Demak, faqat Buxoro shahrining o'zida 170 tadan ortiq madrasa bo'lgan.

Madrasalar katta va kichik hujralardan iborat bo'lgan. Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro madrasalarida hujra olgan talaba quyidagicha shartnomani imzolagan: "1917 yilda Mullo Shodi valadi So'finazar Buxoroi Sharif dorul qozisiga kelib, Abdushukur madrasasining janubiy tomonidagi pastki hujrasi shariatda sahiih bo'lganini iqror qilganini va hujra ichida bo'lgan eshik, asboblari va boshqa xo'jalik narsalari borligini, yashaydigan odamlari ham borligini, ularga, hech qanday nuqson va qusur yetkazilmaganini bir qancha guvohlar oldida iqror qilaman."

Madrasalardagi shart-sharoitlar haqida Sadriddin Ayniy shunday ma'lumotlar qayd etgan: "Ko'pchilik madrasalarning asosiy gurur joylari - hujralari g'oyatda tor, qorong'u bo'lib, ko'pchiligi ikki kishining yotib turishiga zo'rg'a kifoya qilardi. Bu hujralarning ko'pchiligi bir eshiklik va oldi ravoqdek bo'lib, odam ham, havo ham, ziyo ham o'sha bir eshikdan kiradi. Osh pishiriladigan o'choq, suv idishi, yuz-qo'l yuviladigan joy, o'tin, ko'pincha moy, guruch, sabzi-piyoz kabi oziq-ovqat zahiralarini ham shu tor hujraga joylashtirilardi".

---

<sup>55</sup> Сухарева О. К истории городов Бухарского ханства. Ташкент: Изд. Академии наук Уз ССР, 1958.-С.57.

Xullas, Buxoro madrasalari bir vaqtning o'zida talabalar uchun yotoqxona vazifasini ham o'tardi. Hujralarda odatda ikkitadan, ayrim madrasalarning hujrasida bittadan talaba yashagan. Masalan, Abdurahmonboy madrasasida 9 ta hujra bo'lib, ularda 9 nafar talaba tahsil olgan. Buxoro madrasalari o'zining hujralari soni bilan bir-biridan farq qilgan. Bizning zamonamizgacha yetib kelgan va vaqf hujjatlarida saqlanib qolgan ma'lumotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, madrasalarning hujralari soni turlicha miqdorda bo'lib, yagona me'yor bo'lmagan.

Buxoro shaharidagi ayrim madrasalar ro'yxati

Madrasa faoliyatining iqtisodiy manbaini vaqf mulki tashkil etgan. Odatda vaqf mulkining katta qismini yer mulklari (ekin yerlari) tashkil etgan. Masalan, Bozori Gusfand madrasasiga Nurato (Nurota), Shahrisabz va Buxoroning 20 dan ortik qishloqlarini 11 g ekin yerlari vaqf qilib berilgan edi.

Madrasalar qurilgach, u Madrasa boshqaruvchisi (mutavalli)ga topshirilgan va uni qurdirgan shaxsning tasarrufidan chiqarilib, vaqf mulkiga aylantirilgan. Chunki shariatga muvofiq vaqf moli mulk bo'lmaydi, birov uni egallab, mulk qilib turolmaydi.

Vaqfdan kelgan foydani vaqfga tegishli yerlarni ta'mirlash, tuzatishga sarf qilinadi.

Madrasalar kichik, o'rta va oliy madrasalardan iborat bo'lib,<sup>56</sup> yirik madrasalarda vaqfdan tushadigan yillik daromad 40.000-250.000 tangani tashkil etgan. O'rta madrasalarda esa vaqfdan tushadigan yillik daromad 120 tangadan 3500 tangagacha bo'lgan. Vaqfdan tushadigan yillik daromad kichik madrasalarda 500 tanga atrofida bo'lgan. Abdurauf Fitrat esa madrasalarning vaqf mulkidan oladigan jami daromadi haqida quyidagi ma'lumotni qayd etadi: "Buxoro madrasalaridagi oliy tabaqadagi madrasalarning vaqf miqdori 2.815.000 tangaga, o'rta toifadagi madrasalarning jami vaqf miqdori 961.000 tangaga va nihoyat, quyi toifaga mansub madrasalarning vaqf miqdori 500.000 tangagacha yetgan".

---

<sup>56</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари). Т., Адиб. 2014. –Б.43.

Ko`pincha vaqfnomalar har o`n yilda yangilanib borilgan. Mir Arab madrasasining bir, vaqfnomasida: “Har o`n yilda mutavalli katta-katta olim va fuzalolarni madrasada yig`ib, majlis qilib, vaqfnomada yozilgan narsalarni majlis ahliga taqdim qilsin. Va e`lon qilsinki, o`sha shaharning islom qozisining amri bajariladi. O`sha majlisda qozining hukmi bilan vaqfnoma qayta yangilansin. Yozuvchi va qog`ozlarning haqini Madrasa, yoki vaqflardan hosil bo`lgan mablag`dan bersin. Yangilangan hujjat qozining daftarida qayd qilinsin,” - deb yozib qoldirilgan. Vaqf qiluvchidan boshqa hech bir kishining vaqfni o`zgartirishga haqi bo`lmagan.

Buxorodagi madrasalarning vaqf hujjatlarida qayd etilgan tartib-qoidalaridan ayrimlarini misol sifatida keltiramiz. Abdullaxon madrasasining vaqf mablag`ini Fitrat 50 ming tanga deb ta`kidlaydi.<sup>57</sup> Vaqf mulkidan tushgan mablag` quyidagicha taqsimlangan. Eng avvalo, mablag` Madrasa binosini doimiy ravishda ta`mirlab borishga sarflangan. Qolgan mablag`ning beshdan bir qismi (hums) ikki nafar mudarrisga ish haqi sifatida berilgan. Vaqf mulkini boshqaruvchiga (mutavalliga) qolgan.

Mablag`ning 20 dan bir qismi (nisfiushr) ajratilgan. SHuningdek, madrasada imomga yiliga 200 kumush tanga, muazzinga 100 tanga, navbat bilan xizmat qilgan uch nafar farroshning har biriga 60 tanga, masjidni yoritishga (sham, chiroq uchun) 24 tanga, namat va bo`yra sotib olish uchun 60 tanga sarflangan. Nihoyat, yuqoridagilardan qolgan mablag` madrasa talabalari o`rtasida taqsimlangan.

Yirik madrasalardan biri hisoblangan Mir Arab madrasasining vaqf mablag`i esa quyidagicha taqsimlangan: mutavalliga beriladigan maosh vaqflardan hosil bo`ladigan mablag`larning o`ndan birini tashkil etgan. Qolgan mablag`ni madrasa binosiga, agar zarurat bo`lsa va mablag` ortib qolsa, uchdan biri madrasaning xodimlariga (madrasani doim muhofazasida koim bo`lgan, suv bilan ta`minlab bergan kishilarga) berilishi kerak bo`lgan. Muftiylar, muazzinlar, imomlar va madrasada shar`iy ilmlardan dars beradigan mudarrislarga vaqfdan yil davomida

---

<sup>57</sup>Фитрат А. Хинд сайёҳи киссаси // Шарқ юлдузи. -Тошкент, 1991. - № 8. - Б.15.

tushgan mablag`ning uchdan biridan hosil bo`ladigan oltidan bir ulushi berilgan. Muftiylarga bir yilda (uch muftiyning har biriga) bir misqol, 100 nuqra tangasi berilgan". Shuningdek, vaqf mablag`idan imom, mutavalli va muazzinga maosh ajratilgan. Shulardan ortib qolgan mablag` madrasada ta'lim oluvchi tolibi ilmlarga berilishi ko`rsatilgan.

Madrasalar hisobiga vaqf ajratilgan vaqtda xarajatlar ham nazarda tutilgan. Masalan, Buxoro muzeyida saqlanayotgan vaqfga doir hujjatda madrasani tamirlashdan ortib qolgan daromaddan kitoblar sotib olish uchun yiliga 150 tanga, kutubxona kitoblarini ta'mirlash va yangi kitoblar sotib olish uchun yiliga 80 tanga ajratilishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari darsxona va masjidga bo`yra, sham olish uchun ham muayyan miqdorda mablag`lar ajratilgan. Vaqf egasining sharti bo`yicha shu daromaddan madrasa talabalari mudarris tomonidan belgilangan miqdorda g`alla bilan ta'minlanish, mudarrisning o`zi esa daromadning to`rtidan bir qismi hajmida maosh olishi belgilab berilgan.<sup>58</sup>

Manbalarning guvohlik berishicha, vaqf qiluvchi vaqfnomada o`zining o`g`il-qizlari va qarindoshlari manfaatini ham o`ylagan.

Masalan, Mir Arab madrasasining bir vaqfnomasida: "Ana shundan ortib qolgan mablag`ning uchdan ikkisini vaqf qiluvchi hazratlarining o`g`il va qiz farzandlariga, har bir o`g`il haqini ikki baravarida taqsimlash, vaqf qiluvchining avlodlaridan birontasi o`lsa, uning naqdni farzandlariga berilishi, vaqf qiluvchining avlodlaridan birontasi faqirlik holiga tushsa, mutavalli barchasiga haqlarini bergandan keyin ortib qolgan pullardan faqirlarning haqiga rioya qilib yana qo`shib berishi haqida yozib qoldirilgan.

Ayrim holatda madrasalarda vaqf mablag`ini suiste'mol qilish holatlari ham uchrab turgan. Abdurauf Fitratning yozishicha, ayrim madrasalarda (masalan, Gavkushon madrasasi) mudarrislik qiluvchilar mullabachchalarga vaqf mablag`ini ulashish jarayonida suiste'molchilikka yo`l qo`ygan, ya'ni mullabachchalar sardoriga sheriklaridan bir nechtasining ismlarini ortiqroq yozishni buyurgan va ularga taqsimlangan pulni qaytarib olgan.

---

<sup>58</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари). Т., Адиб. 2014. –Б.44.

Ayrim madrasalar uchun mansabdor shaxslar, bozorlar va karvonsaroylar tomonidan ma'lum miqdorda mablag` o'tkazib turilgan. Masalan, XIX asrning o'rtalarida yirik madrasalardan biri -hisoblangan Ko'kaldosh madrasasiga Nutay karvonsaroyi tomonidan yiliga 240 tilla hajmidagi mablag` o'tkazib turilgan.

Madrasalarning moliyaviy ta'minoti uchun turli ko'rinishdagi vaqf mulklari ajratilgan. Masalan, Buxoroning o'z davrida eng mashhur va boy bo'lgan madrasalaridan biri Abdullaxon (g'arbiy) madrasasining vaqfnomasida o'nta ajratilgan vaqf mulklari haqida shunday ma'lumot ko'rsatilgan: Muhammad Sulton masjidi yonida 7 ta, anorfurushlar bozori oldida 6 ta, boshqa tarafida 9 ta, Islom darvozasi oldida 4 ta, Muhammad Sulton masjidining boshqa tarafida 6 ta, Amir Janolibiy masjidi ko'chasida 6 ta, Registon hammomi yonida 8 ta va ulardan tashqari yana 56 ta turli do'kon; Ohani bozori yaqinidagi, Gavkushon hamda Roziyon hammomlari va yana 32 ta har xil do'kon vaqf qilingan edi, Bulardan tashqari, G'ijduvon tumani va Iasaf viloyatida ham yer va do'konlar Abdullaxon madrasasiga vaqf mulki qilinadi.<sup>59</sup> Madrasaning yillik daromadi 50 ming tilla tangadan iborat edi.

“Vaqt” jurnaliga qo'shimcha qilib chiqarilgan “Sho'ro” jurnalining bergan batafsil ma'lumotlariga qaraganda, Birinchi jahon urushi arafasida Buxoro madrasalarining vaqflaridan kelgan daromadlar katta mablag`ni - 4.742.000 tangani tashkil etgan.<sup>60</sup> Bundan tashqari, eng ulkan hisoblangan Ko'kadtsosh bilan Mir Arab madrasalarining yillik daromadi 150 ming tanga, Govkushonniki 190 ming tanga bo'lsa, Ja'farxo'ja madrasasiniki esa 350 ming tangaga yetgan. Shuning uchun ham domlalar shu dargohlarda talim berishga, talabalar esa tahsil olishga intilganlar.

O'quv jarayonini tashkil etish odatda, mudarrisining zimmasida bo'lib, ular quyidagi uch toifaga bo'lingan:

Birinchi toifa - a'lo darajali mudarrislar deb atalgan va ularga qozi ul-kuzzot, raisi kalon, shayx ul-islom, oxun, a'lam, mufti askar kirgan.

---

<sup>59</sup> Фитрат А. Ҳинд сайёҳи қиссаси // Шарк юлдузи. -Тошкент, 1991. - № 8. - Б.16.

<sup>60</sup> Сухарева О.А. История городов Бухарского ханства. Т., Изд. академии наук УзССР. 1958. –С.145.

Ikkinchi toifa - o`rta darajali mudarrislar deb atalgan. Bu toifadagi mudarrislarni kiygan kiyimlariga qarab banoraspush va bekasabanush deb atashgan. Bilim jihatidan esa ushbu toifadan chiqqan mudarrislar muftiy darajasiga erishganlar. Mazkur toifadagi mudarrislar taxminan 200 nafar bo`lib, ularni yana avsata tadrisiy - o`rta mudarrislar deb ham ataganlar.

Uchinchi toifa - quyi darajadagi mudarrislar hisoblanib, ularni asfol tadrisi deb atashgan. Ushbu toifadagi mudarrislar, imom mudarrislar, ba`zan bekasabapush deb ham atalgan. Imom mudarrislarning soni 300 dan ortiqroq bo`lgan. Madrasalarda mudarrislar (madrasada tahsil oluvchi talabalarga dars bergan, ma`ruza qilgan) soni ularda ta`lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Buxoro madrasalarida dars beruvchi mudarrislarning soni XX asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko`rsatiladi.<sup>61</sup>

Mudarris madrasada dars berishi uchun ushbu lavozimga tayinlanish tartibiga ko`ra, kichik madrasalarning mudarrisi qozikalon tomonidan, yirik madrasalarning mudarrisi esa, amir tomonidan tayinlangan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Abdurauf Fitratning qayd etishicha, “Buxoroda muohoz (vazifalik, moyana) ya`ni, oxunlik, ulamolik, muftilik, mudarrislik martabalari janob oliy hazrati Amir tomonidan qozikalon vositasi-la berilur”.

Qoida tariqasida madrasalarga tayinlanadigan mudarrislar qozikalonning taqdimi bilan amir tomonidan tasdiqlangan. Ammo keyingi yillarda bu vazifani qushbegi o`z tasarrufiga olgan. Masalan, Amir Olimxon davrida madrasaning mudarrisi Nasrullo qushbegi tomonidan tayinlangan.

Qushbegi arxivida amir tasdig`idan o`tgan 327 nafar mudarrislarning ro`yxati keltirilgan. Demak, madrasalardagi mudarrislar qozikalon tomonidan amirga tavsiya etilib, tavsiya etilgan nomzodni esa amirning shaxsan o`zi tasdiqlagan. Bundan tashqari ayrim Madrasa mudarrislari vaqf mulki daromadlaridan tashqari, imkoniyati bo`lgan ayrim talabalarning ixtiyoriy keltirgan in`omlari hisobidan ham moddiy ta`minlanib turgan. Bunday holatlarda

---

<sup>61</sup>Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий. (Фойдали тарих). Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов ва З.Чориев. Т., Академия, 2001. - Б. 33-34.

mudarrislar talabalari keltirgan in'om bilan qanoatlanganlar va o'zlarini ortiqcha ta'magirlikdan tiyganlar.

Buxoro amirligida mudarris lavozimi unga yaqin mansablar pog'onasida ikkinchi pog'onaning to'rtinchi darajasida turgan. Bu lavozim bir umrga berilib, uning egasi ta'lim bilan mashg'ul bo'lishga imkoniyati bo'lmay qolganda ham xazinadan maosh olib turgan.<sup>62</sup>

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida "kunduz kuni muallim o'z o'quvchilari bilan mashg'ulotda band bo'ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg'ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo'yi o'qiydi va o'z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug'ullanadi", degan fikrlarni bayon qilgan.

Tarixda ayrim hukmdorlarning o'zi ham madrasada mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Mirzo Ulug'bek Samarqandda, Amir Haydar Buxoroda mudarrislik qilgan. O'sha davr tarixchilarining asarlarida Amir Haydarning madrasada ta'lim oluvchi 400-500 nafar talaba shogirdlari ham bo'lganligi qayd etilgan. Amir Haydar talabalar uchun Istanbul (Usmonli turk sultonligi)dan kitoblar keltirishga shaxsan o'zi harakat qilgan.

O'sha davr matbuotida "shahardagi olim-ulamolar madrasalarda dars berib, talabalarga ko'p foyda keltirib, zalolatda yurganlarni ilm chirog'i bilan hidoyat topishlariga sabab bo'lishadi, ular xolis Alloh uchun hizmat qiladilar", deb mudarrislariga yuqori baho berilgan.

Nufuzli mudarrislar vafot etsa, shahardagi e'tiborli diniy ulamolar Madrasa mudarrislari, talabalari va mahalla oqsoqollarini chaqirib, ehson qilganlar, Madrasa talabalariga kiyim-kechak berib, savobini marhum haqiga bag'ishlaganlar.

O'sha davr matbuotida qayd etilishicha, Buxoroda mudarrislik va muftiylik martabasi amir tomonidan "ularga taxti qalam uchun emas, balki mulla bolalarni va ahli tolibni ta'lim va tarbiyasiga qarash uchun berilgan. Muftiy va mudarrislar turli mansablarga tayinlanib, ularga unvonlar berilgan" Demak, Buxoro madrasalarida mudarrislik ham sharaflı, ham mas'uliyatli kasb edi.<sup>63</sup>

---

<sup>62</sup> Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. - Тошкент: 1996. - Б. 26.

<sup>63</sup> Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари).Т.,Адиб. 2014. –Б.48.

Yuqorida qayd etilganidek, mudarrislarining ta'minoti vaqfnomada ko'rsatilgan vaqf mablag'ining madrasa ta'miri uchun ketgan sarf-xarajatdan qolgan qismidan ajratilgan, uning ulush miqdori vaqf hujjatida aniq qilib belgilangan bo'lgan. XIX asrning o'rtalarida Buxoro madrasalarida mudarrislarining oladigan maoshlari quyidagicha bo'lgan: Halimjon madrasasida yiliga 80 tilla, Jo'ybori Hurd madrasasida 100 tilla, Xiyobon madrasasida 180 tilla, Muhammad Sharif savdogar madrasasida 199 tilla, Ko'kaldosh madrasasida 360 tilla, Xo'ja Jo'ybori Kalon madrasasida 500 tilla, Dorulshifo madrasasida 700 tilla, Gavkushon madrasasida 700 tilla. Bundan tashqari Ja'farxo'ja madrasasining 40 ga yaqin mudarrislarining har biri yiliga ikki ming tanga maosh olganlar. Mir Arab madrasasidagi mudarrislariga yiliga 150 tangadan berilgan, ya'ni vaqf mablag'ining uchdan bir qismi maosh uchun ajratilgan. Shuning bilan birga, yuqoridagilarga nisbatan ancha kam maosh oladigan mudarrislar ham bo'lgan. Masalan, nisbatan kichik Mulla Nazar madrasasida mudarrisga 8-10 tilla, Abdullaboy madrasasida 12 tilla, Ahmad dorug'a madrasasida 16 tilla, Azizon madrasasida esa 30 tilla maosh berilgan. Mudarrislar soni ham madrasadagi vaqf mablag'iga qarab belgilangan. Masalan, Abdurahmonboy madrasasida bitta mudarris bo'lgani holda, Ja'farxo'ja madrasasida 40 nafar mudarris dars bergan. Bundan tashqari Abdulazizxon, Modarixon madrasalarida ikki nafardan, Ulug'bek madrasasida bir nafar domla bo'lgan bo'lsa, tashqi ko'rinishi va hujralarining soni bo'yicha Ko'kaldosh, Mir Arab va Gavkushon madrasalariga teng kelolmaydigan Jafarxo'ja madrasasida 40 nafar domla talabalarga ta'lim bergan, ya'ni bu jihatdan hammasidan ustun turgan, chunki u juda ko'p daromad keltiradigan vaqflarga ega bo'lgan.

Xullas, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amiri tomonidan madrasalar va ularning mudarris va o'qituvchilari uchun yiliga 100 ming rubl ajratilgan.

Madrasada xo'jalik ishlarini tashkil etish vakolati qoida tariqasida mutavalli (boshqaruvchi) zimmasiga yuklatilgan. Barcha vaqf hujjatlarida boshqaruv ishi, ishni yuritish va nazorat qilish mutavalli ixtiyorida bo'lishligi ko'rsatilgan. Barcha vaqf mulklarida vaqf qoldiruvchining o'zi yoki uning o'g'il vorislari, o'g'illaridan

voris erkak bo`lmasa aka-ukalarning o`g`illari mutavvali bo`lishgan. Bordi-yu vaqt va zamon o`tishi bilan agar erkak voris ushbu avlodda qolmasa, shu avlodning qizlaridan qolgan o`g`il bolalarga qoldirilgan. Agar egalik qiluvchilar ilmda, salohiyatda va tasarruf (boshqaruv salohiyati)da teng bo`lsalar qarindoshlikda yaqinrog`i, qarindoshlikda ham teng bo`lsa, ularning eng yoshi kattarog`i tayinlangan. Mutavallilikka egalik qiluvchi avlod vakillaridan hech kim qolmasa, Buxoro shahrining ishonchli qozisi mutavalli bo`lishi mumkin bo`lgan. Qozining maoshi esa vaqflardan hosil bo`ladigan foydaning o`ndan birining yarmiga teng qilib belgilangan. Masalan, Bibi Xalifa madrasasining vaqf hujjatida ko`rsatilishicha, mutavalli (voqif) vaqfchining o`zi bo`lgan. Vaqf hujjatlariga muvofiq “Mutavalli agar voqif (vaqf qiluvchi)ning aytganlariga zid ish qilsa, qolgan avlodlar uni man qiladi (qilayotgan ishidan to`xtatadi). Agar u yana qaytmasa uch marotaba man qilinadi. Shunda ham qaytmasa, boshqa vakillikka loyiq avlodlari mutavalli bo`ladi. Ishdan olingan mutavalli davrida vaqflardan hosil bo`lgan mablag` qolgan bo`lsa, undan talab qilib olinadi va o`z o`rniga sarflanadi. Voqif tomonidan qilingan shartlarni amalga oshirmaganligi uchun undan hisobot talab qilinadi.

O`z navbatida mutavalliga ham ma`lum vakolat berilgan: Xususan, “Mazkur vaqflarning biror-bir xodimi shariatda gunoh deb hisoblangan ishni qilsa, mutavalli uni uch martagacha ogohlantiradi, agar qaytmasa, uning o`rniga boshqa bir kishini tayinlaydi”. Bundan tashqari, agar mutavalli yangi xodimni ishga olmoqchi bo`lsa, yuqoridagi shartlarni ma`lum qilishi va har yili mazkur shartlarni boshqa xodimlarga ham eslatib turishi lozim bo`lgan.

Madrasa talabalari asosan ikki guruhga bo`lingan: darsga muntazam qatnashadigan, madrasa hujrasida yashab o`qiydigan talabalar va darslarga erkin qatnashadigan talabalar. Madrasalarning soni xususida bo`lgani kabi, ularda tahsil oluvchi talabalarning soni haqida ham turli ma`lumotlar mavjud. Manbalarda va adabiyotlarda Buxoro madrasalarida XIX asrning 40- yillarida 9-10 ming nafar,

XIX asrning oxirida 10 ming nafar, “XX asrning boshida esa 20 ming nafar” talaba tahsil olganligi qayd etiladi.<sup>63</sup>

Madrasada tahsil oluvchilarning ta’minoti ham madrasaga tegishli bo’lgan vaqf mulkining miqdoriga qarab har xil bo’lgan. Masalan, XIX asrning o’rtalarida Ernazar madrasasida (uni Ernazar elchi qurdirgan) talabaning yillik ta’minoti 2,5 tillani tashkil etsa, Xo’ja Juybori Kalon madrasasida 20 tillani tashkil etgan. Ko’kaldosh madrasasining bir yillik daromadi 150 ming tanga bo’lib, bu mablag’dan 74 ming tangasi 148 hujraga, ya’ni mullabachchalarga taqsimlangan, mudarrisga 28 ming tanga, imomga 10 ming tanga ajratilgan. Har bir talaba Madrasa hujralaridan birini, ya’ni o’zi yashaydigan xonani sarf-harajati va mehnati bilan obod qilib, mabodo talaba ushbu hujrani tark etishiga to’g’ri kelsa, u holda hujrani tuzatish uchun sarf qilingan mablag’ni boshqa talabadan olishi va shundan keyingina hujrani uning nomiga o’tkazishi lozim bo’lgan. Talabalarga issiq ovqat ko’pchilik madrasalarda bir marta-tushlikda berilgan. Madrasalarda moddiy ta’minot 3 xil ko’rinishda amalga oshirilgan: pul, tilla, pul va tilla (qo’shma holda). Talabalarga beriladigan ta’minot (nafaqa) miqdori esa madrasaning vaqf mulki daromadining miqdoriga bog’liq edi, bu miqdor esa har xil bo’lgan. Talabalarga o’qish uchun ma’lum darajada minimal sharoit yaratilgan: hujralarda o’qish va yozish uchun sham, yerga to’shash uchun bo’yra, va kunlarida tahorat kilish uchun hammomlardan issiq suv keltirib berilgan, hayit bayramlarida katta ziyofat berilgan, ramazon oyida esa kuchli kaloriyali ovkatlar berib turilgan. Madrasa talabalari o’zlarining sarf-xarajatlari uchun madrasaga biriktirilgan vaqf mulki daromadlaridan ishlatishi mumkin edi. Albatta, bu to’g’rida vaqfnomada qayd etilgan bo’lishi shart edi. Moddiy jihatdan ta’minlangan oilalarning farzandlari chetdan mablag’ olmasdan tahsil olgan. Madrasaning ba’zi talabalari esa amir

---

<sup>63</sup>Эргашев Б. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. - Ташкент: Фан, 1991. - С. 16.

hukumati stipendiyasi bilan ham ta'minlangan. Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon o'zi qurdirgan madrasa talabalarini moddiy jihatdan ta'minlab turgan.<sup>64</sup>

Buxoro madrasalarida tahsil olgan talabalar to'rt manba asosida kun kechirgan: 1)vaqf daromadi hisobidan; 2)o'zining o'qituvchilik faoliyati hisobidan (yoz oylarida); 3)otasining mol-mulki hisobidan; 4)davlat ta'minotidan (nafaqa-stipendiya). Madrasada o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishda, shuningdek ta'lim-tarbiyada o'zini ko'rsatgan talabalar davlat stipendiyasini olishgan. Bu stipendiya dah-yak, ya'ni o'ndan bir deb atalgan. Uning sohibini dahyakxo'r deb atashgan. Stipendiyaga da'vogarlar maxsus imtihondan o'tkazilib, uning natijalari shaxsan amirga taqdim etilgan. Madrasa talabalari o'qish uchun, hujralarda yashash uchun, kutubxona kitoblaridan foydalanish uchun pul to'lashmagan, bular tekin bo'lib, vaqf hisobidan edi.

Madrasa talabalarining yashash tartiblari, shart-sharoitlari haqida Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvar kishilar ancha keskin, tanqidiy fikrlar bildiradilar. Xususan, Abdurauf Fitratning yozishicha, madrasada tahsil oluvchi mullabachchalar 6 oy o'qib, qolgan 6 oy mobaynida qishloqlarga borib, imomlik qilishib, pul to'plashgan. Mullabachchalar taqsilning birinchi yilida, ikkinchi tahsil yilida o'qilishi lozim bo'lgan kitoblardan dars boshlamoq uchun har kim qurbi yetganicha, masalan, 20 tangadan 500 tangagacha mablag' to'plab, ustozlariga berishgan.

Arxiv materiallari va mavjud tarixiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, amirlikda hokimiyatdagi o'z mavqei bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan qozikalon xalq ta'limining ahvoli, tarbiyaviy ishlar, islomiy aqidalarni amalga oshirish vazifalariga mas'ul hisoblangan. Amirlikning barcha viloyatlari va shaharlarida uning vakillari bo'lib, yuqoridan kelgan topshiriqlarni amalga oshirgan. Demak, ta'lim tizimi hokimiyatning nazaridan chetda bo'lmay, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni mamlakatning taraqqiyot darajasidan kelib chiqib bajarib turgan.

---

<sup>64</sup> Каримов Р.Х. XIX аср охири – XX аср бошлари Бухоро маънавий ҳаёт. Бухоро тарих саҳифалари. Мақолалар тўплами. Бухоро, 1999. -Б.50.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro madrasalari ta'lim tizimining eng yuqori bosqichi bo'lib, ilm maskani sifatida nafaqat Turkiston mintaqasida, balki barcha musulmon mamlakatlarida madaniyat o'choqlari vazifasini o'tab, ma'rifat markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Buxoro madrasalari islom olamidagi eng mashhur va nufuzli oliy o'quv yurti bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi fikrlari Misr va Hijozda o'qiganlarning fikrlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida ham Buxoro madrasalarining islom dunyosidagi mavqei va nufuzi ma'lum darajada saqlanib, jamiyat taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, o'sha vaqtda davlatning hukmron siyosati va islom ta'limotiga xizmat qilgan.

Buxoro madrasalari nafaqat o'quv yurti, balki o'ziga xos me'moriy yodgorlik obidalari ham edi. Madrasalar qurilishiga hukmdorlar katta e'tibor qaratgan madrasalarning aksariyati xolis xususiy mulk hisobidan barpo etilishi shart bo'lib, hukmdor bo'lgan xon va amirlar tomonidan ko'plab hashamatli madrasalar bino etilgan. Bundan tashqari yirik amaldorlar, nufuzli kishilar, sarmoyador kishilariing tashabbusi bilan madrasalarni qurish va ta'mirlash ishlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Buxoro madrasalari o'z hashamati, pishiq va puxta qurilganligi bilan me'moriy jihatidan o'rta asr arxitekturasining eng nodir namunalari sifatida hozirgacha saqlanib qolgan. Madrasalar qurilishi bilan asrlar osha shug'ullanilganligi bois, bu borada boy tajriba ham shakllangan.

Buxoro amirligida ta'lim tizimi hokimiyatning nazaridan chetda bo'lmay, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni mamlakatning taraqqiyot darajasiga mos ravishda bajarib kelgan. Qozikalon xalq ta'limining ahvoli, tarbiyaviy ishlar, islomiy aqidalarni amalga oshirish vazifalariga mas'ul hisoblanib, bu holat ta'limga e'tibor qaratilganidan dalolat beradi. Madrasalar ko'lamining kengayishi va moddiy bazasini mustahkamlash masalasi xususiy shaxslarga bog'liq bo'lganiga qaramay, mamlakat ijtimoiy madaniy hayotida muhim o'rin tutib, davr talabiga javob bergan. Madrasa bir vaqtning o'zida talabalar uchun yotoqxona vazifasini o'tab, ularning taminoti ham madrasaga tegishli bo'lgan vaqf mulkining miqdoriga qarab belgilangan. Nafaqat ma'sul shaxslar, balki hukmdor amirlar ham madrasadagi

moddiy ta'minot masalalarini e'tiborda tutgan. Ammo, madrasalarning moliyaviy-xo'jalik ta'minoti asosan vaqf mulkchiligiga asoslangan. Buxoro amirligi madrasalarining qurilishi, moddiy-xo'jalik ta'minoti masalalari davr talabiga qay darajada javob berishidan qat'iy nazar, muayyan faoliyatga ega bo'lgan. Ammo yuqoridagi xulosalardan madrasalarning qurilishi, moddiy-xo'jalik ta'minoti va faoliyatini tashkil qilish masalalarida kamchilik yo'q degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Ko'pchilik madrasalarda hujralarning etishmasligi, darsxonalar va darsliklar kamligi, ularda zamonaviy shart-sharoitlar yetishmasligi, qurilish ishlari loyihalar asosida emas, balki o'zboshimchalik bilan bajarilganligi, xonalarda yorug'likka e'tibor qaratilmaganligi, qator muammolar va noqulayliklarga sabab bo'lgan.

Madrasalar, ularning xizmatchilari va mudarrislar xizmat haqi vaqf daromadlariga bog'liqligi madrasalardagi ta'lim jarayonida ham o'z aksini topgan, ularning nufuzini belgilab bergan. Natijada qishloqlar, shahar chetlaridagi madrasalar poytaxt Buxorodagi madrasalardan katta farq qilgan. Bu holat talabalarni o'tilgan saboqlarni o'zlashtirishida ham ma'lum darajada rol o'ynagan.

## XULOSA тавсиялар

Buxoro amirligida ta'lim tizimi tadqiq etilayotgan davrda ham o'tgan asrlar an'anasi singari boshlang'ich (maktablar) va yuqori (madrasa) bosqichlaridan iborat edi. Boshlang'ich ta'lim muassasalarida asosan arab alifbosida savod chiqarish, islom asoslarini egallab, axloqiy tarbiyaga urg'u berilgan. Ularning moddiy asosini vaqf mulklari, ayrim shaxslardan tushgan xayri-ehsonlar tashkil etib, asosan xususiy va jamoa mablag'lari hisobidan ta'minlangan. Ulardagi shart-sharoit sanitariya-gigiena talablariga, ta'lim-tarbiya uslublari esa zamon talablariga javob bermas edi. Xususan, ta'lim jarayonida harflar va matnlarni arab tilida yod olish, o'qish va yozishni alohida o'zlashtirish, tan jazosi kabi holatlar shular jumlasidan edi. Ayni paytda maktablar to'islohotlar boshlangunga qadar savod chiqarish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan yagona o'quv-tarbiya muassasasi bo'lib keldi.

Buxoro madrasalari o'zining islom dunyosidagi mavqei va nufuzini bu davrda ham yuqotmagan edi. Jamiyat taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, madrasalar o'sha vaqtda davlatning hukmron siyosatiga va islom ta'limotiga xizmat qilgan. Buxoro madrasalari nafaqat o'quv yurti, balki mahalliy me'morchilikning eng nodir namunasi hisoblangan. Madrasadagi ta'lim tizimi hokimiyatning nazaridan chetda bo'lmay, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni mamlakatning taraqqiyot darajasidan kelib chiqib bajarib turgan. Madrasalarning moliyaviy-xo'jalik ta'minoti vaqf mulkchiligiga asoslangan. Buxoro amirligi madrasalarining qurilishi, moddiy-xo'jalik ta'minoti masalalari davr talablariga javob bera olmasa-da, ularning faoliyati ma'naviy hayotda alohida o'rin egallagan.

Buxoro amirligida ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lgan madrasalar shariat, ta'lim va boshqaruv tizimiga kadrlar tayyorlash, islom asoslarini o'rganish, adabiyot, mantiq kabi fanlarni o'rgatuvchi maskan sifatida nafaqat O'rta Osiyoda, balki musulmon dunyosida yaxshi ma'lum edi. Amirlikdagi madrasalar ham xuddi boshlang'ich maktablar kabi o'tgan asrlar an'anasi asosida faoliyat yuritgan. Bu davrda boshqa musulmon mamlakatlarida madrasalar

faoliyati, o`quv dasturi faol isloh qilinayotgan bo`lsada, Buxoro madrasalarida bu jarayon deyarli kuzatilmadi.

Buxoro madrasalarida yagona o`quv rejasi va o`quv dasturlarining amalda mavjud emasligi, darslik va o`quv qo`llanmalarining zamon talablariga javob bermasligi, maktabxona ta`limi bilan madrasa ta`limi o`rtasida davomiylik prinsiplariga rioya qilinmaganligi, asosiy fanlar emas, sharh va hoshiyalarga zo`r berilishi, mutaassiblar va ayrim ulamolarnish salbiy ta`siri tufayli madrasa ta`limi kutilgan natijani bermay, taraqqiyotdan ortda qoldi.

Buxoro amirligida ta`lim tizimini isloh qilishda taraqqiyparvar kuchlarning ma`rifatparvarlik g`oyalarini faoliyati muhim rol o`ynadi. Yosh Buxoroliklar firqasi faollari mamlakatda eng avvalo boshlang`ich maktablarni isloh qilish, yangi usul maktablari ochish g`oyalari bilan chiqib, uni amalga oshirish uchun turli xayriya tashkilotlari va shirkatlar ochdilar, darsliklar va o`quv qo`llanmalari yaratdilar. Qrim, Qozon (Rossiya), Istanbul (Turkiya) va boshqa shaharlarga borib, tajriba almashib keldilar. Buxorolik jadidlarning ma`rifatparvarlik faoliyatida musulmon olamidagi islohotchilik harakatlari katta rol o`ynadi.

Buxoro amirligida faoliyat ko`rsatgan yangi usul maktablarida o`quvchilarning “usuli savtiya”, ya`ni harflarni tovush usulida o`qish va yozish orqali tezda savod chiqarishi, mashg`ulotlarni sinf-dars tizimida uyushtirilishi, diniy bilimlar qatori dunyoviy bilimlarga katta e`tibor qaratilishi, ta`til va imtihon tartiblarining joriy etilganligi, o`quvchilarni erkin fikrlashga o`rgatish kabi omillar o`sha davr uchun katta yangilik edi. Ammo bu maktablar amirlikdagi diniy mutaassiblar tomonidan keskin qarshilikka uchradi va o`z faoliyatini muvaffaqiyat bilan davom ettirish imkoniyatiga ega bo`lmadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusida ko`tarilgan masalalar va bu muammolarni echish yo`llari va erishilgan natijalar o`ylaymanki ahamiyatlidir. SHu maqsadda men o`zimning bir necha **tavsiyalarimni** berib o`tmoqchiman:

1. Avvalo, bizning milliy tariximizni mukammal bilish va ongli anglash uchun madarasa tizimi ўқув жараёнини жиддий, қиёсий ўрганиш керак.

2. Мадраса маънавий faoliyatini o'rganish maqsadida taqqoslash, qiyoslash va turli xil metodlardan foydalaniш зарур
3. O'rta maxsus talim dargohlarida va Oliy o'quv yurtlarida talabalari ongida milliy g'urur, ona Vatanga bo'lgan yuksak hurmat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni o'sdirishda madrasalar tarixini y'rganish ahamiyatli ekanligini anglatish uchun talaba yoshlar orasida ushbu mavzuda seminarlar, konferensiyalar va ko'rik tanlovlar o'tkazilib turilsa yaxshi bo'ladi. Bundan tashqari oliy o'quv yurtlari kafedralari qoshida tashkil etilgan iqtidorli talabalarning to'garaklarida ushbu masalalarga ko'proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

#### 1.Rahbariy adabiyotlar:

1. **Mirziyoev SH.M.** Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -592 b.
2. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni **2016** yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va **2017** yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi MA’RUZASI // Xalq so‘zi. **2017** yil **15** yanvar.
4. Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. –T.: “Turkiston”. 1999, 2-fevral.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - T.: “Sharq”, 1998.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: “O‘zbekiston”, 1997.
7. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda, Toshkent, 1999.
8. Karimov I.A. O‘zbek halqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13.-T.: O‘zbekiston, 2005.-b. 183, 184, 189.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -T.: “Ma’naviyat”, 2009.

#### II. Asosiy adabiyotlar

II.1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. / Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. - Тошкент: Фан, 1966.

II.2.Алимова Д. История как история, история как наука. В 2-х томах. Т.Н. Феномен жадилизма. - Ташкент: Узбекистан, 2009.

II.3.Алимова Д. XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда маданият муаммоларини ўрганиш тарихидан // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - Тошкент, 1995. - №10-11-12.

II.4.Айний С. Асарлар. Саккиз томлик. 8-том. Мақолалар, - Тошкент: Фафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

II.5.Айний С. Танланган илмий асарлар. Нашрга тайёрловчи Ё.Исоков. - Тошкент: Фан, 1978.

II.6.Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва: СССР халқлари марказий нашриёти, 1926.

II.7.Айний С. Асарлар. Эсдаликлар (1-11 қисмлар). - Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1953.

II.8.Айний С. Бухара. Воспоминания. Авторизованный перевод с таджикского С.Бородина. (1-2-часть.) - Москва: Советский писатель, 1951.

II.9.Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи / Форсийдан А.Ирисов таржимаси. - Тошкент: Фан, 1991.

II.10.Аҳмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Сталинабад: Таджикгосиздат, 1960.

II.11.Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое (Нодир воқеалар). Форс тожикчадан Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. — Тошкент: Фан, 1964.

II.12.Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

II.13. Аҳмад Муҳаммад, Мубашшир Аҳмад. Ислом ҳазораси. Т., Мовароуннахр. 2004.

II.14. Атаев А. Мадрасалар тарихига бир назар//Мозийдан садо. Т., 2008.

II.15.Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари).Т.,Адиб. 2014.

II.16.Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. - Тошкент: Нашриётсиз, 1996.

II.17.Жуманазар А. Ўргимчак (Биринчи рисола). - Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.

П.18. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т., Ўзбекистон, 1999.

П.19.Зияева Д.Х. XIX аср охири - XX аср бошида Туркистонда анъанавий таълим тизими муаммолари // Тошкент ислом университети. Илмий-таҳлилий ахборот. 2009. № 3.

П.20.Зияева Д.Х. XX аср бошида Ўзбекистонда анъанавий таълим тизими / XX, аср Ўзбекистонда маданият тарихидан-очерклар: анъаналар ва трансформация жараёнлари. - Тошкент. 2011.

П.21.Комилхон Каттаев. Самарқанд мадрасалари ва илму-фан ривож.Самарқанд.2003.

П.22.Йулдошев Н. Абдурауф Фитратнинг “Рахбари нажот” (Куткарув йули) асаридан мухтасар фасллар. - Бухоро, 1996.

П.23.Йулдошев Н. Маърифат фидойилари // Гулистон. 1991. №4-6.

П.24.Каримов Р.Х,. XIX аср охири - XX аср бошлари Бухорода маънавий ҳаёт. Бухоро тарих саҳифалари. Мақолалар тўплами. - Бухоро, 1999.

П.25.Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тожиқ тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов ва З.Чориев.- Тошкент: Академия, 2001.

П.26.Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917-1935 йиллар). -Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

П.27.Ражабов Қ,. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). -Тошкент: Маънавият. 2002.

П.28.Ражабов Қ, Файзулла Хўжаев. - Тошкент: Abu matbuol konsalt, 2011.

П.29.Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Страницы жизни быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи— Ташкент:- Изд литературы и искусства, 1981.

П.30. Салимова Б.Х. Хоразм-жаҳон туризми маскани // Инсониятнинг илмий ва маданий мероси-учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива

шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари.  
Т., Ўзбекистон. 1997.

II.31. Сухарева О.К. Бухара XIX - начало XX в. - М.: Наука, 1966.

II.32. Сухарева О.К. Истории городов Бухарского ханства. Ташкент:  
АН. Уз ССР, 1958.

II.33. Сухарева О. Позднофеодальный город Бухара конце XIX -начало  
XX века. - Ташкент: АН. Уз ССР, 1962.

II.34. Фитрат А. Мунозара//Шарқ юлдузи. 1997. -№1.

II.35. Фитрат А. Ҳинд сайёҳи қиссаси // Шарқ юлдузи. -Тошкент, 1991. -  
№ 8.

II.36. Қаландаров М. Муҳаммад Аминхон мадрасаси ёхуд “Қалта  
минор” силсиласи // Мозийдан садо.Т., 2008. 3-сон.

II.37. Хожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти.  
Т., Шарқ. 2005.